Umuman olganda, 8-rasmda loyiha infratuzilmasi va uning atrofidagi tuzilmalar va jamoat infratuzilmalari, masalan, quvurlar, magistral yo'llar va boshqa Ohtllar ko'rsatilgan retseptorlar xaritasi keltirilgan va shundan so'ng 9-rasmda loyiha maydonchasi atrofida o'tadigan mavjud yo'llar va yo'llar ko'rsatilgan.

8-rasm: Retseptorlar xaritasi (loyihə maydonı va bevosita ta'sir hududi)



9-rasm. Hududdagi muqobil yo'llar



## 2.2 Ta'sir zonası

Asosiy ta'sir zonası – bu Loyihaning tarkibiy qismlari, jumladan FE panellari, podstansiya, elektr energiya saqlash inshooti, kirish yo'li, HEUT va yer osti kabeli joylashgan ta'sir hududi. Hech bir LTOSh doimiy ravishda Loyihaning ta'sir hududida yashamagani sababli (faqat cho'ponlar yashash joyidagi mavsumiy turar joylar), ikkilamchi ta'sir zonası mavjud bo'ladi, ular Yangiobod, Xalqobod, Batosh, Oynako'l hamda loyihaning shimoli-sharqida bir-biridan uzoqroqda joylashgan xonadonlar. Ikkilamchi ta'sir zonası – bu LTOShlar yashaydigan hudud (LTOShlar o'zlarining tomorqa yerlariga ega bo'lib, bu yerlardan tirikchilik manbalarini tiklash uchun foydalanilishlari mumkin), chunki LTOSharning hech biri Loyiha maydonida yashamaydi.

Hozirgi vaqtda vaqtinchalik yer olish talablarining to'liq hajmi aniq bo'lmasligi mumkin. Agar qurilish va ekspluatatsiya jarayonida vaqtinchalik yer foydalanishi yoki qo'shimcha yer talab etilishi sababli jismoniy yoki iqtisodiy ko'chirish sodir bo'lsa, ta'sir ko'rgan shaxslar yo'qotish turi va kompensatsiya jadvaliga muvofiq tegishli huquqlarga ega bo'ladilar.

## 2.3 Ko'rib chiqilgan muqobillar

O'zbekiston Respublikasi Hukumati (O'RH) elektr energiyasini ta'minlashni oshirishni maqsad qilgan va “2030 yilgacha mamlakatni elektr energiya bilan ta'minlash strategiyasini” qabul qilgan. Ushbu strategiyada 2020-2030 yillar oraliq'ida elektr ta'minoti uchun bir qator maqsadlar va yo'naliishlarni belgilangan. Energiya Strategiyasining maqsadlaridan biri – qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va kengaytirish, hamda yagona elektr tizimiga integratsiya qilishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun O'zbekiston Hukumati quyidagi vazifalarni bajarishni rejalashtirmoqda: “Davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) investitsiya loyihalari mexanizmlarini yaratish, QTEMni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish va QTEMlarni o'zlashtirish bo'yicha investitsiya loyihalarini namoyish etish hisobiga elektr energetikasi va issiqlik energetikasida QTEMlar ulushini oshirish orqali diversifikatsiyalashtirish”.

2019 yil may oyida O'zbekiston Respublikasining “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida”gi va “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi qonunlari qabul qilindi. Shu tariqa, qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha bu kabi loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish uchun normativ-huquqiy baza yaratildi. O'zbekiston 2030 yilgacha bo'lgan davrda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda.

Loyiha maydoni “Masdar”ga butun mamlakat bo'ylab kimoshdi savdosi jarayoni doirasida ajratilib, bu jarayonda yuqori darajadagi ekologik va ijtimoiy (E-I) masalalarni, masalan, muhofaza etiladigan hududlarga, aholi punktlariga yaqinlik va hokazolar ko'rib chiqildi.

Maydonning joylashuvi minimal maydonda maximal energiya ishlab chiqarish uchun optimallashtirilgan. Shunday qilib, atrof-muhit va ijtimoiy omillarga ta'sirni minimallashtirish hamda tarmoqga ulanish uchun HEUT talabini bekor qilish ko'zda tutilgan.

731 ga maydonni tanlash va tarmoqqa ulanish yondashuvini aniqlash uchun texnologiyani baholash ishlari diqqat bilan amalga oshirildi. Quyidagi muqobillar ko'rib chiqildi:

- Loyihaga alternativa yo'q
- Maydonni tanlash
- Loyiha joylashuvi sxemasi
- Tarmoqqa ulanish variantlari
- Texnologiya
  - quyosh energiyasi yoki boshqa energiya ishlab chiqarish texnologiyalari
  - batareya texnologiyasini tanlash

"Hech narsa qilmaslik" variantida, taklif etilgan Quyosh FE loyihasi qurilmaydi, shuning uchun kapital sarmoya xarajatlari amalga oshirilmaydi va loyiha qurilishi va ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlar oldi olinadi. Biroq, "Hech narsa qilmaslik" stsenariysida Loyihadan kutiladigan O'zbekistonning o'sib borayotgan energiya ehtiyojlarini qondirish va uglevodorod yoqilg'iga asoslangan elektr energiyasi va energiya importiga qaramligini kamaytirish strategiyasini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekistonning quyosh FE energiyani ishlab chiqarish uchun boy tabiiy resurslaridan foydalanish kabi muhim bo'lgan foydalar qo'lga kiritilmaydi.

Quyosh FE loyihalari sarmoya kiritish va ularni rivojlantirish ushbu strategiya tamoyillariga erishishning muhim tarkibiy qismlaridir, shu sababli ushbu Loyiha O'zbekiston milliy energetika strategiyasining umumiy maqsadlariga mos keladi. Bundan tashqari, ushbu quyosh FE loyihasi mahallalarga ish o'rinnari va hududdagi bioxilmayxilikni faol boshqarish orqali mahalliy ekologiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday foydalar ham "Hech narsa qilmaslik" stsenariysida yo'qoladi. Kengroq kontekstda "Hech narsa qilmaslik" varianti umumiy iqtisodiy rivojlanishni va mintaqaga aholisining ijtimoiy farovonligini yaxshilash imkoniyatlarini cheklaydi.

Xulosa qilib aytganda, quyidagi muqobillar ko'rib chiqildi:

- Hech narsa qilmaslik – bu O'zbekistonning Energetika strategiyasi va "Uzbek Solar 3" dasturi doirasidagi maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kamaytiradi.
- Maydonni tanlash – muhofaza qilinadigan hududga kirmaydigan, aholi yashamaydigan va milliy yoki xalqaro madaniy meros joylashgan hududi

bo'limgan maydonni aniqlash. Shuningdek, maydon G'uzor 500 podstansiyasiga yaqin joylashgan bo'lib, tarmoqqa ulanish ta'sirini kamaytiradi.

- Texnologik muqobililar - quyosh energiyasi yoki boshqa energiya ishlab chiqarish texnologiyalari – maydon boy quyosh resurslariga ega va mavjud podstansiyaga yaqin joylashgani aniqlandi. Bu yerda muqobil texnologiyalarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi kamroq yoki O'zbekistonning qayta tiklanadigan energiya bilan bog'liq maqsadlariga javob bermaydi.


## 2.4 Ko'chirish zaruratini cheklash usullari

Manfaatdor tomonlar bilan keng qamrovli hamkorlik qilish tadbirlari va arxeologik tekshiruv yakunlanganidan so'ng, Loyihaning sxemasi bir necha bor o'zgartirildi, bu madaniy meros ob'ektlariga ta'sirni kamaytirish va davlat, xususiy va jamoat infratuzilmasi joylashgan yerkarni olib qo'yishni oldini olish maqsadida amalga oshirildi (10-rasmga qarang). Maydonga tashriflar va maslaxatlashuvlar davomida quyidagi ob'ektlar aniqlanib, loyihaning yakuniy sxemasida e'tiborga olingan va chetlab o'tilgan:

- Tog'-kon korxonasi;
- Ikkita madaniy meros obyekti;
- Loyihaning dastlabki maydonidan o'tuvchi HEUTning sanitariya-muhofaza zonasi;
- Loyihaning oldingi sxemasida Loyihaning maydonini kesib o'tuvchi "O'ztransgaz" gaz quvuri; va
- Loyihaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan ikkita inshoot (cho'pon uylari).

Bundan tashqari, elektr tarmoqqa ulanishni mavjud G'uzor maydonining shimoliga emas, janubiga ko'chirish natijasida podstansiya va loyiha maydoni o'rtaida joylashgan uy xo'jaligi inshootlariga hamda G'uzor 500 podstansiyasiga yaqin joylashgan mavjud HEUTlarga ta'sir kamaytirildi.

10-rasm. Muqobil maydonlar



### 3 Huquqiy va institutsional asos

#### 3.1 Umumiylumot

Loyiha O'zbekistonning huquqiy talablarini, shuningdek, yerlarni olib qo'yish va majburiy ko'chirish bo'yicha XMK, OTB, YeTTB va Ekvator Printsiplari talablarini bajarishi kerak. Ushbu talablar quyidagi bo'lmlarda keltirilgan.

#### 3.2 Milliy Qonunchilik

O'zbekistonda yerni olib qo'yish jarayoni bir nechta muhim qonunlar va me'yoriy hujjatlar bilan boshqariladi. Ularga Konstitutsiya, Yer Kodeksi va boshqa muhim huquqiy hujjatlar kiradi. Ushbu bo'linda yer egalari va foydalanuvchilari uchun asosiy qoidalar va himoya choralari ta'kidlangan bo'lib, ular o'z yerlarini jamoat loyihalari uchun kerak bo'ladigan bo'lsa, adolatli tarzda kompensatsiya olishlarini ta'minlaydi.

##### 3.2.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil 8 dekabr) har bir fuqaro mulkka egalik qilish huquqiga ega ekanligini ta'minlaydi (36-modda).

53-moddaga asosan, O'zbekiston hukumati iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib yerga bo'lgan fuqarolik huquqlarini, mulkni himoya qilishni va yerda amalga oshiriladigan faoliyatlar, ya'ni, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Yer egalari o'z yerlarini istagan tarzda ishlatish va undan foydalanish huquqiga ega (mahalliy atrof-muhit va jamoalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyatlar bundan mustasno) (54-modda).

##### 3.2.2 Yer Kodeksi (1998 yil, 2022 yil o'zgartirishlari bilan)

Yer Kodeksi (YK) barcha yer masalalarini, jumladan, yerni olib qo'yish, yer ajratish, o'tkazish, yer uchastkalarini sotish va yerga egalik qilish huquqi turlarini belgilashni qamrab oladi. Quyidagi moddalar ushbu Loyiha uchun yerni olib qo'yish talablariga tegishlidir:

- 16-modda: Davlat mamlakatdagi barcha yerlarning egasi va undan foydalanish uchun asosiy mas'ul organ hisoblanadi.
- 36-modda, (1-band): Yerdan doimiy yoki vaqtincha foydalanish huquqini tugatish mahalliy hokimiyat, ya'ni ma'muriy bo'linmalar (tuman/shahar/viloyat) hokimlari qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Her egalari hokimlarning qarorlariga rozi bo'lмаган тақдирда, ular sudga shikoyat qilish huquqiga egadirlar. (36-moddaning 4-bandи).

- 37-moddaning 1-bandı: Davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasining to'liq yoki qisman olib qo'yilishi yer egasining/foydalanuvchining va ijaraga oluvchining roziligi bilan tuman, shahar, viloyat hokimligining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan amalga oshiriladi.
- 37-moddaning 2-bandı: Yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi yer uchastkasining olib qo'yilishi to'g'risidagi qarorga rozi bo'limgan taqdirda, ushbu qaror ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin.
- 39-moddaning 1-bandı: Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va uy xo'jaligi egasi yer uchastkasi olib qo'yilgan taqdirda unga yetkazilgan zararning (shu jumladan boy berilgan foydalaning) qoplanishini yoki yer uchastkasidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganida sarflangan xarajatlarning to'lanishini talab qilisga haqlı.
- 41-moddaning 3-bandı: Yerdan foydalanuvchilarining, ijarachilarining va yer egalarining huquqlarining buzilishi natijasida yetkazilgan zararlar (shu jumladan, yo'qotilgan foyda) to'liq hajmda qoplanadi.
- 41-moddaning 4-bandı: Yerdan foydalanuvchi yoki ijarachiga, agar yer davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan bo'lsa, unga tenglashtirilgan yer uchastkasi berilishi va yetkazilgan zarar (shu jumladan boy berilgan foyda) qoplanishi mumkin.
- 86-moddaning 1-bandı: Yerdan foydalanuvchilarining zararlari to'liq qoplanishi lozim bo'lgan holatlarga quyidagilar kiradi:
  - boy berilgan foyda;
  - yerlar olib qo'yilgan, qayta sotib olingen yoki vaqtincha egallab turilganda;
  - suvni muhofaza qilish zonalari, qirg'oqbo'yi mintaqalari, suv obyektlarining sanitariya-muhofaza zonalari, yer osti va yer osti suvlarining hosil bo'lish zonalari, kurort tabiiy hududlar zonalari, davlat biosfera rezervatlari zonalari, davlat qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar, davlat tabiat yodgorliklari, moddiy madaniy meros obyektlari, suv tashlamalari, yo'llar, truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari atrofida muhofaza zonalari belgilanishi munosabati bilan ularning huquqlari cheklanganda;
  - suv havzalari, kanallar, kollektorlar, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar chiqaradigan boshqa ob'ektlar qurish va ulardan foydalanishning ta'siri hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hosil kamayishiga va qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati yomonlashuviga olib boradigan boshqa xatti-harakatlari oqibatida yerlarning sifati yomonlashgan taqdirda.
- 87-moddaning 1-bandı: Qishloq xo'jaligi va o'rmon yerlarini, shu jumladan jismoniy shaxslar egaligidagi va foydalanishidagi qishloq xo'jaligi yerlarini qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligini yuritish bilan bog'liq bo'limgan maqsadlarda foydalanish uchun olib qo'yish, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va

ijarachilarining huquqlari cheklanishi yoki korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatining ta'siri oqibatida yerlarning sifati yomonlashuvni tufayli qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'rni qoplanadi.

### **3.2.3 Fuqarolik kodeksi (1990 yil, 2022 yil o'zgartirishlari bilan)**

Fuqarolik Kodeksi (FK) barcha turdag'i mulkka (moddiy, intellektual va hokazo) egalik qilishda O'zbekiston fuqarolarini qonuniy himoya qiladi. FK mol-mulkni baholashning asosiy/umumiyligini qoidalarini, mulknini musodara qilish holatlarini va zararni qoplash huquqlarini belgilaydi. Xususan, FKda O'zbekiston fuqarosining huquqi buzilgan taqdirda, agar qonunda yoki shartnomada yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash nazarda tutilmagan bo'lsa, barcha zararlarni to'liq qoplanishi lozimligi belgilab qo'yilgan (14-modda).

83-moddaga asosan, ko'chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan obyektlar kiradi.

Shuningdek, FK barcha ko'chmas mulk ob'ektlari qonuniy ro'yxatga olinishi kerakligini belgilaydi (84-modda). Natijada, ro'yxatdan o'tmagan barcha mulk uchun kompensatsiya to'lash mumkin emas.

### **3.2.4 781-sonli Qonun (2022 yil)**

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyuldag'i "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni jismoniy va yuridik shaxslarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini yoki ularning qismlarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillarini belgilaydi. Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan davlat organlari va muassasalari, korxonalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mulk huquqi asosida hamda doimiy foydalanishida bo'lgan yer uchastkalari ushbu qonundan istisno hisoblanadi.

Quyida ushbu Loyihani amalga oshirish uchun eng dolzarb maddalar keltirilgan:

- 2-moddada ko'rsatilgandek, agar O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomada 781-sonli Qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomalar qoidalari qo'llaniladi.
- 4-modda yer uchastkalari olib qo'yilishi kerak bo'lgan holatlar ko'rsatilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnomalar/bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarining bajarilishi. Shuningdek, davlat va mahalliy

ahamiyatga molik avtomobil yo'llari, ko'priklar, tunnellar, muhandislik inshootlari hamda elektr va aloqa tarmoqlarini qurish (rekonstruksiya qilish) maqsadida yer uchastkalarini olib qo'yish jamoat ehtiyojlari deb e'tirof etiladi.

- 11-moddada Kompensatsiya komissiyasi a'zolari tegishli viloyat xalq deputatlari Kengashlari a'zolarining qarori bilan ikki yil muddatga tasdiqlanadi va 17 kishidan iborat bo'lishi ko'rsatilgan. Qonunda Kompensatsiya qo'mitasining vazifalari ham belgilab qo'yilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:
  - kompensatsiyalar o'z vaqtida to'liq hajmda berilishi ustidan muntazam monitoring va berilgan kompensatsiyalarning hisobi yuritilishini ta'minlash;
  - kompensatsiyalar o'z vaqtida va to'liq berilmagan hollar aniqlangan taqdirda, xalq deputatlari Kengashlari axborot kiritish;
  - kompensatsiyalar berilishi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni sudga qadar tartibda hal etishga ko'maklashish;
  - kompensatsiyalar berilishi bilan bog'liq bo'lgan nizolar bo'yicha tavsiyaviy xususiyatga ega qarorlar qabul qilish.
- 24-moddada ko'rsatilgandek, kompensatsiya turlari har xil bo'lishi mumkin: naqd pulda, natura shaklida va LTOSh uchun qo'llaniladigan boshqa turdag'i kompensatsiyalar.
- 22-moddada yer egalari bilan shartnoma tuzish tartibini belgilangan bo'lib, unga ko'ra:
  - Loyiha ishlab chiquvchisi loyiha quriladigan hudud/tumanning tegishli hukumat organlaridan ruxsat/rasmiy buyruq olishi va mulkdorlar/LTOShlar bilan kelishib olishi va shartnoma imzolashi kerak.
  - Kadastr qo'mitasining mahalliy bo'linmalari mahalliy hokimiyat organlari va LTOSh bilan kelishuvga erishganidan so'ng, yer uchastkalarini olib qo'yishni qayd etishlari va uni "Kadastr va ro'yxatga olishning yagona axborot tizimi" ga kiritishlari kerak;
  - Kompensatsiya to'liq to'lanmagunicha qurilish yoki mulklarni buzish ishlari boshlanmasligi kerak.
- 23-moddada kompensatsiya ko'chmas mulkning bozor narxini, yerga bo'lgan huquqni yo'qotishni, dov-daraxtlarni, transport xarajatlarini, ko'chirish va ko'chmas mulkni vaqtincha ijara olish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni, boy berilgan foyda (mavsum yoki bir yil davomida) qonun hujjalarda ko'rsatilgan va LTOSh bilan kelishilgan holda boshqa barcha xarajatlar qoplanishi kerakligi ko'rsatilgan.
- 25-moddada kompensatsiyalarni to'lash muddatlari va shartlari ko'rsatilgan. Agar kompensatsiya shartnoma imzolangan kundan bir oy yoki undan ko'proq vaqt

o'tgach taqdim etilsa, to'lov to'lov sanasidagi inflyatsiya darajasiga teng bo'lgan indeksatsiya hisobga olingan holda to'lab beriladi.

- 26-moddaga ko'ra, Loyiha ishlab chiquvchisi quyidagi shartlar bajarilganidan so'ng loyiha hududi egasiga aylanadi: i) tegishli mahalliy hokimiyat organidan kelishuvni olish; ii) ushbu hujjatni "Kadastr va ro'yxatga olishning integratsiyalashgan axborot tizimi"ga kiritish va iii) LTOShga kompensatsiyani to'liq to'lash. O'z navbatida, LTOShlar kompensatsiya olinganidan keyin 6 oy ichida buzilishi kerak bo'lgan ko'chmas mulkni bo'shatib berishlari kerak.
- 27-moddaga ko'ra, Kompensatsiya komissiyasi LTOSh bilan tuzilgan shartnomaga va "Kadastr va ro'yxatga olishning integratsiyalashgan axborot tizimi"ga kiritilgan barcha tegishli hujjatlarga muvofiq, mustaqil monitoringni amalga oshirish uchun javobgardir.
- 30-moddaga ko'ra, buzilishi kerak bo'lgan ko'chmas mulkning ro'yxati (ta'rifi va joylashgan joyi ko'rsatilgan holda), shuningdek, mahalliy hokimiyat organlariga taqdim etilishi kerak bo'lgan buzishning dastlabki sanalari tayyorlanishi kerak.
- 31-moddaga asosan, yerni olib qo'yishga ruxsat bergen mahalliy hokimiyat organlari ma'lumotlarni oshkor qilishlari va tegishli tashkilotlarni xabardor qilishlari shart.
- 32-moddaga ko'ra, buzish xarajatlari loyiha ishlab chiquvchisi tomonidan qoplanishi kerak va LTOShlar buzilishdan keyin qurilish materiallarini olish huquqiga ega.

### **3.2.5 Vazirlar Mahkamasining 146-son qarori (2011 yil 25 may)**

Vazirlar Mahkamasining 146-sonli "Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'limgan boshqa ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zbekistonda jismoniy va yuridik shaxslarga yer uchastkalarini berish tartibini takomillashtirish hamda yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Amaldagi qarorning 2-ilovasida mulk turlari, asosan, qishloq va o'rmon xo'jaligi zararlarlariga kompensatsiyalarning turlicha hisob-kitoblari taklif qilingan. Kompensatsiya xarajatlari yer uchastkasi berilgan yangi mulkdor (jismoniy/yuridik shaxslar) tomonidan to'lanishi kerakligi belgilangan. Barcha zararlar uchun kompensatsiya quyidagi hollarda to'lanishi kerak:

- yerni doimiy va vaqtincha egallah;
- yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni cheklash (masalan, muhofaza qilish, sanitariya-muhofaza zonalarini tashkil etish);

- suv havzalari, kanallar, kollektorlar va qishloq xo'jaligi ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar ajratadigan boshqa ob'ektlar qurilishi va ulardan foydalanimishi, hosilning pasayishiga hamda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yomonlashishiga olib keladigan boshqa xattiharakatlari ta'siri natijasida yer sifatining yomonlashishi. (2-ilovaning 5-moddasi).

Yer uchastkalarini yoki uning bir qismini olib qo'yish, qayta sotib olish yoki vaqtincha egallab turilganda yer egalariga quyidagilar to'lanadi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning xususiy mulkida bo'lgan yer uchastkasining qiymati;
- turar joylar, imoratlar va inshootlar, shu jumladan, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek, agar yer olib qo'yilishi munosabati bilan ulardan bundan keyin foydalinish mumkin bo'lmasa, ajratiladigan uchastkadan tashqaridagi ob'ektlar qiymati;
- meva-rezavor, ihota daraxtlari va boshqa ko'p yillik daraxtlar qiymati;
- tugallanmagan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi qiymati;
- boy berilgan foya.

Ushbu Qarorga ko'ra, yerni hozirgi egasidan olib qo'yish va ko'chirish faqat kompensatsiya berilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Agar yer yoki mol-mulkka egalik huquqini isbotlab bo'lmaydigan bo'lsa, zararlar qoplanmaydi.

### **3.2.6 Boshqa tegishli Prezident va Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

O'zbekistonda yerni olib qo'yish va kompensatsiya to'lash bilan bog'liq qo'shimcha milliy qonunlar va qonun hujjatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

*4-jadval: Boshqa tegishli qonun hujjatlarining qisqacha mazmuni*

Huquqiy talablar	Qisqacha mazmuni
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 martdagи 125-sonli "Qashqadaryo viloyatida quvvati 300 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini hamda 75 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish va boshqarish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi qarori.	Prezident qarori "Masdar"ga Loyihani qurish, egalik qilish, va boshqarish hamda hukumat ixtiyoriga topshiriladigan HEUT tarmog'ini qurish imkonini beradi. Elektr energiyasini sotib olish shartnomasi 25 yilga imzolandi. Loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yer uchastkasi Energetika vazirligi va boshqa tegishli vazirliklar tomonidan aniqlanadi va Energetika vazirligining mulkiga o'tkaziladi, so'ngra bu yer maydoni "Masdar"ga ijara beriladi. Energetika vazirligi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanganligi (toifasini o'zgartirganlik) uchun

Huquqiy talablar	Qisqacha mazmuni
	qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi zararlarni (kompensatsiya to'lovlarini) qoplashdan ozod etildi <sup>7</sup> . Energetika vazirligi maydondan 5 km masofada sanoat ob'ektlari yoki tog'-kon ishlari va boshqalarni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.
543-sonli qaror	Mazkur qarorda davlat hokimiyyati organlariga, shu jumladan Energetika vazirligiga (va boshqa tegishli tashkilotlarga) "doimiy foydalanish" huquqi asosida jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari berish tartibi belgilab berilgan.
Prezidentning 2018 yil 1 avgustdagи 5495-sonli "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.	Mazkur farmonda investitsiya loyihalari uchun yer uchastkalari ajratilishida boshqa xalqaro siyosatlar ham qo'llanilishi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, kompensatsiyani hisoblash bozor narxlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligi aniq ko'rsatilgan.
O'zbekiston Soliq kodeksi	Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 noyabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 911-son qarori.

### 3.2.7 Servitut

Servitut O'zbekiston qonunchiligidagi "servitut" deb ta'riflangan. HEUT uchun zarur bo'lган servitut o'lchami HEUT uchun sanitariya-muhofaza zonalarini (SMZ) belgilovchi SanQvaN 0350-17 "O'zbekiston Respublikasining aholi punktlarida atmosfera havosini muhofaza qilish" (2017 yil) bo'yicha belgilanadi.

SanQvaN 0350-17, 2.23.4-bo'limga binoan, aholini HEUTning elektr maydonining ta'siridan himoya qilish uchun SMZ tashkil etilishi kerak. SMZlar elektr maydon kuchi 1

<sup>7</sup> Yerga egalik qiluvchi va boshqaruvchi sub'ektlar barcha davlat idoralari ekanligi aniqlangandi va kompensatsiya to'lanmaganligi hech qaysi odamga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Rasman yerdan foydalanuvchilar ushbu TTTRda hisobga olindi. Shuning uchun, Prezident qarori ijrosi kreditorlar talabiga javob beradi.

kV/m dan ortiq bo'lgan yuqori kuchlanishli HEUT yo'nalishi bo'ylab o'tgan yer uchastkalar sifatida belgilangan.

Yangi loyihalashtirilgan HEUT uchun binolar va inshootlar HEUTning har ikki tomonida quyidagi masofalarda qurilishi kerak.

- 330 kV kuchlanishli HEUT uchun - 20 m
- 500 kV kuchlanishli HEUT uchun - 30 m
- 750 kV kuchlanishli HEUT uchun - 40 m
- 1150 kV kuchlanishli HEUT uchun - 55 m

Servitutlar, shuningdek, HEUTdan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish uchun talab qilinadi, masalan, kabellarni to'sib qo'ymaslik uchun, shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish vositalariga texnik xizmat ko'rsatish ishlarni bajarish<sup>8</sup> uchun kirishlariga qulay sharoit yaratish maqsadida, HEUTning servitutida uylar va baland inshootlarni qurish yoki baland daraxtlarning o'sishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (30 va 86-moddalar), Fuqarolik kodeksi (173-modda) hamda Vazirlar Mahkamasining 16.11.2019 yildagi 911-son qaroriga servitutni olishning asosiy qoidalari kiritilgan. Yer kodeksining 30-moddasida quyidagi holatlarda servitutni olish mumkinligi belgilangan:

- o'zganing yer uchastkasi orqali elektr uzatish, aloqa, muhandislik va boshqa turdag'i liniyalarni o'tkazish;
- o'zganing yer uchastkasida irrigatsiya kanallarini qurish yoki drenaj ishlarini bajarish;
- ichimlik suvini olish uchun quduq qurish;
- yerning bir qismidan kirish yo'li sifatida foydalanish; va
- taddiqot yoki boshqa vaqtinchalik dala ishlarini olib borish.

Yuqorida sanab o'tilgan me'yoriy-huquqiy hujatlar, servitutni olish hozirgi yer egasi va yer uchastkasi kerak bo'lgan shaxs o'rtasida o'zaro kelishib olinishini talab qiladi. Servitut ham qonuniy ravishda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi va ikki tomon o'rtasida kelishilgan barcha shartlarni o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, servitut bo'yicha amalga oshirilgan faoliyat natijasida yuzaga kelgan barcha yo'qotishlar/zararlar qoplanishi kerak.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerdarda servitut kerak bo'lsa, tuproq sifatini tez-tez kuzatib borish kerak. Agar servitutdan foydalanadigan korxona qolgan yer uchastkalariga zarar yetkazsa, ular uchun ham kompensatsiya to'lanishi kerak.

<sup>8</sup> Loyiha HEUT ostidagi maydonda 6 m dan baland bo'lgan narsalarni olib tashlaydi

Servitutni olish natijasida kelib chiqqan zararlarni hisoblash va qoplash uchun talablar boshqa barcha turdagи yerlarni olib qо'ish uchun talablari bilan bir xildir.

Tarmoqqa ularish ishlari uchun yangi 220 kV yer osti kabeli kerak bo'lishi kutilmoqda. Maydon va mavjud nimstanstiya o'rtasida yer osti kabeli uchun Servitutni o'rnatish uchun hech qanday talab yo'q, ammo kabelning har ikki tomonida bir metrli muhofaza zonasi quyida ko'rsatilgan tarzda tashkil etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektr tarmoqlari ob'ektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 1050-sun qarorida (2018 yil) yer osti kabellari uchun quyidagi **muhofaza zonasi** belgilangan:

- yer osti elektr uzatish kabel liniyalari bo'ylab - elektr uzatish liniyasining ikkala tomoniga parallel vertikal tekisliklar bilan chegaralangan, chetdagи kabellardan 1 metr, agar kabel liniyalari shaharlarda yo'laklar ostida o'tkazilganda esa — bino va inshootlar tomonga 0,6 metr va ko'chaning transport harakatlanadigan qismi tomoniga 1 metr masofaga chetlangan yer uchastkasining yuza qismi, uning ostida joylashgan (elektr uzatish kabel liniyalari o'tkazilgan chuqurlikka mos chuqurlikdagi) yer qa'ri ko'rinishida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-15-sun:

Ushbu Farmonning 1-moddasida Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va Jun sanoatini rivojlantirish qо'mitasini tugatilgani e'lon qilinadi. Uning funksiyalari quyidagicha qayta taqsimланади:

- Yaylovlarni boshqarish bo'yicha funksiyalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qо'mitasiga o'tkaziladi.
- Ipak qurti yetishtirish va ipakchilikni rivojlantirish funksiyalari Qishloq xo'jaligi vazirligi va "O'zbekipaksanoat" uyushmasiga yuklanadi.
- Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Buxoro dasht-yaylov yem-xashak ekinlari urug'chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi Veterinariya qо'mitasini tizimiga kiritiladi.
- Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti va O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti endilikda Qishloq xo'jaligi vazirligiga bo'ysunadi.

3-modda bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarda yaylov xo'jaliklari davlat muassasalari sifatida Veterinariya qо'mitasini tizimida tashkil etiladi. Shuningdek, Veterinariya qо'mitasini Kadastr agentligi, O'zbekkosmos agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari bilan hamkorlikda 2025-yil yakuniga qadar yaylov

yerlarining inventarizatsiyasini yakunlashi lozim. Bu esa haqiqiy foydalanilayotgan yerlar bilan davlat kadastro ma'lumotlarining mosligini ta'minlaydi.

7-modda bilan Veterinariya qo'mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan 2025-yil dekabriga qadar yayovlarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun "E-Yaylov" elektron platformasi ishga tushirilishi shart etib belgilanadi.

11-modda bilan Qishloq xo'jaligi vazirligi quyidagi choralarni ko'rishi belgilangan:  
a) Bir oy ichida Veterinariya qo'mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda Ipakchilik qo'mitasini tugatish bo'yicha tashkiliy masalalarni yakunlash;  
b) Ikki oy ichida Vazirlar Mahkamasiga quyidagi takliflarni kiritish:

- "O'zbekipaksanoat" uyushmasi bilan birgalikda ilgari Ipakchilik qo'mitasi balansida bo'lgan tutzorlarning samarali foydalanilishi bo'yicha takliflar;
- Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar bilan birgalikda hududiy yaylov xo'jaliklarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqish;

c) Uch oy ichida:

- Yayovlarni ijaraga berish tartibi, barqaror foydalanish bo'yicha ijara oluvchilar majburiyatları, degradatsiyani oldini olish va florani tiklash bo'yicha qo'llanmalarni belgilovchi me'yoriy hujjat loyihasini tayyorlash;
- Farmon talablariga muvofiq qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar bo'yicha takliflar tayyorlash;

d) Olti oy ichida "Yayovlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish.

Loyiha 84,96681 hektar yer maydoniga ta'sir qiladi, ushbu yer ilgari IJSRQ (Ipakchilik va Jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi) tasarrufida bo'lgan.

### 3.2.8 Yerlarni davlat yer zaxirasiga qaytarish

Loyihani amalga oshirish uchun yer maydonini Masdarga ijaraga berishdan avval, bu yerlar boshqa toifaga o'tkazilib, davlat yer zaxirasiga qaytarilishi kerak. Bu ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin:

- **Majburiy olib qo'yish** ("bekor qilish" yoki "ekspropriatsiya" deb ham yuritiladi) - bu yerning davlat ehtiyojlari uchun majburiy ravishda olib qo'yilishi bo'lib, Kengash<sup>9</sup> roziligi va jamoatchilik muhokamalarini talab qiladi, YOKI
- **Ixtiyoriy voz kechish** - bu holda yer egasining arizasi kerak bo'ladi.

<sup>9</sup> Kengash - viloyat, tuman, shahar miqyosida qonun chiqaruvchi organ hisoblangan mahalliy kengash, yig'in. Ular tegishli hudud aholisi tomonidan saylanadi va mahalliy boshqaruvda ishtirok etadi.

Majburiy olib qo'yish jarayoni vaqt talab qiluvchi bo'lib, ko'plab bosqichlar va tasdiqlardan iborat. Aksincha, ixtiyoriy voz kechish uchun faqatgina notarial tasdiqlangan ariza kerak bo'ladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdaggi PF-198-sonli Farmoniga muvofiq).

Yer maydoni davlat yer zaxirasiga qanday yo'l bilan qaytarilishiga qarab kompensatsiya turi va hajmi farqlanadi. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, faqatgina yerni egalik huquqi asosida ishlatib kelayotgan foydalanuvchilar kompensatsiya olish huquqiga ega. Quyidagi kompensatsiya har bir variant bo'yicha amal qiladi.

*5-jadval: Majburiy olib qo'yish va o'z ixtiyoriy voz kechish uchun kompensatsiya talablari*

Majburiy olib qo'yish	Ixtiyoriy voz kechish
<p>Amaldagi zararlar va boy berilgan foya:</p> <ol style="list-style-type: none"><li>Yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulkning bozor qiymati;</li><li>Yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati;</li><li>Ko'p yillik daraxtzorlarning bozor qiymati;</li><li>Ko'chish bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan muqobil mulkni vaqtincha ijara olish;</li><li>Yerdan foydalanish va obodonlashtirishdan olinishi mumkin bo'lgan boy berilgan foya (yer berilgan paytdan boshlab faoliyat qayta tiklangunga qadar, bir yilgacha yoki mavsumiy hosildan olingan daromad);</li><li>Qonun yoki shartnoma bilan tan olingan boshqa yo'qotish va zararlar.</li></ol>	<p>Faqat amalda qilingan va mavjud xarajatlar:</p> <ol style="list-style-type: none"><li>Ko'chirish xarajatlari;</li><li>Boshqa bevosita xarajatlar.</li></ol>

### **3.2.9 Kompensatsiya**

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq to'lanadigan ikki xil kompensatsiya puli mavjud:

- Yer toifasini o'zgartirish uchun kompensatsiya: bu davlat budgetiga to'lanadi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi yo'qotishlarni qoplashga xizmat qiladi. 2024-

yil 14-martdagi PQ-125 ga binoan, Energetika vazirligi G'uzor loyihasi bo'yicha yer toifasini o'zgartirish uchun to'lov to'lash majburiyatidan ozod etilgan.

- Loyiha ta'siri ostidagi shaxslar (LTOSh) uchun kompensatsiya: bu rasmiy yer egalariiga (egalar, foydalanuvchilar, ijarachilar) yetkazilgan zararlar va/yoki yo'qotilgan foydani to'liq qoplash uchun to'lanadi.

Yer olish jarayonini boshlagan tomon kompensatsiya jarayonini tashkil etish uchun mas'uldir. Bunday tashabbuskorlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, respublika darajasidagi davlat organlari yoki viloyat hokimliklari bo'lishi mumkin<sup>10</sup>.

Agar yer majburiy olib qo'yilayotgan bo'lsa, kompensatsiya quyidagilardan to'lanadi:

- Respublika kompensatsiya jamg'armasi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan.
- Hududiy kompensatsiya jamg'armasi – viloyat hokimliklari huzurida tashkil etilgan.

Agar yer ixtiyoriy ravishda voz kechilayotgan bo'lsa, kompensatsiya yer oluvchi subyekt tomonidan to'lanadi (bu holda Masdar).

### **3.2.10 Auksion tizimi**

Prezidentning 18.01.2024 yildagi PF-15-sod Farmoniga muvofiq, 2024-yil 1-martdan boshlab qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarni ijaraga berish bo'yicha ilgari qo'llanilgan ochiq elektron tanlov tartibi o'rniqa elektron onlayn-auksionlar rasman joriy etildi. Yer kodeksiga muvofiq, bo'sh turgan qishloq xo'jaligi yerkarni faqat elektron onlayn-auksion orqali 30 yil muddatga ijaraga beriladi. Bu shuni anglatadiki, o'rnini bosuvchi yer avtomatik ravishda taqdim etilmaydi va agar sobiq yerdan foydalanuvchilar (masalan, fermerlar) qishloq xo'jaligi faoliyatini davom ettirishni xohlasalar, ular umumiy onlayn-auksionlarda ishtirok etishlari, teng shartlarda raqobatlashishlari va muvaffaqiyatga erishgan taqdirda yerni 30 yilga ijaraga olishlari kerak.

### **3.2.11 Yerlarning joriy holati**

2024-yil dekabr oyida hokimlik LTOSh lar bilan maslahatlashib, Loyiha bo'yicha kompensatsiya jarayonini tezlashtirish uchun ularga yerdan ixtiyoriy voz kechish to'g'risida ariza topshirishni taklif qildi. Bu o'z vaqtida yakunlangan, biroq hokimlik bu arizalarni amalda ko'rib chiqmagan, buning o'rniqa ular TTTR kompensatsiyasi to'lanmaguncha to'xtatib turiladi.

<sup>10</sup> Yerni olib qo'yish to'g'risidagi qaror har doim Kengash tomonidan, biroq faqat davlat hokimiyati organi tashabbusi bilan qabul qilinadi.

"Masdar" hokimlik bilan yarlarni ixtiyoriy voz kechish orqali davlat yer zaxirasiga o'tkazishni rasmiylashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish niyatida. Biroq, LTOSh larga to'lanadigan kompensatsiya ushbu hujjatning qolgan qismida tavsiflanganidek, Qarz beruvchi talablariga mos keladi.

### **3.3 Kreditorlar talablari**

#### **3.3.1 XMKnинг Ishlash standartlari**

XMKning 5-Ishlash standarti "Majburiy ko'chirish"ga qaratilgan. XMK IS5 ning asosiy talablari quyidagilardan iborat:

- Ko'chirishni oldini olish va bunday holatlar mumkin bo'limganida loyiha sxemasining muqobil yechimlarini qidirish orqali ko'chirishni minimal darajaga tushirish;
- Majburiy ko'chirishga yo'l qo'ymaslik;
- Mol-mulk boy berilganligi uchun kompensatsiyani o'rnini bosish qiymati hisobida berish va ko'chirish jarayonlarini tegishli darajada maslahatlashuvlar va ma'lumot oshkor qilinishi bilan amalga oshirish;
- Ko'chirilgan shaxslarning tirikchilik manbalarini va yashash sharoitlarini yaxshilash yoki tiklash;
- Fizik jihatdan ko'chirilgan shaxslarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun ularga yetarli turar-joy va uy-joyga egalik qilish va undan foydalanishning huquqiy kafolatlari bilan ta'minlash.

Bunga yashash manbalarini tiklash rejasi yoki institutsional asos, tegishli tarzda ishlab chiqilgan monitoring va baholash mexanizmi, muddatlar jadvali va moliyaviy rejani o'z ichiga olgan ko'chirish rejasini amalga oshirish orqali erishish kerak.

#### **3.3.2 OTBning Himoya Siyosati Bayonoti**

Yer olish va turmush tarzini tiklash ta'sirlari OTBning 2009-yildagi Himoya Siyosati Bayonotida (HSB, 2009) ko'rsatilgan bo'lib, OTBning Majburiy Ko'chirish bo'yicha himoya choralarining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- imkon qadar majburiy ko'chirishning oldini olish.
- loyiha va loyiha sxemasining variantlarini o'rganish orqali majburiy ko'chirishni minimallashtirish.
- barcha ko'chirilgan odamlarning tirikchilik manbalarini Loyihadan oldingi darajaga nisbatan real ifodada oshirish yoki hech bo'limganda tiklash.
- Ko'chirilgan kambag'al va boshqa ijtimoiy ehtiyojmand guruhlarning turmush darajasini yaxshilash.

OTB ko'chirishning jismoniy (ko'chish, turar-joy yerlarini yo'qotish yoki boshpanani yo'qotish) va iqtisodiy (yer, mol-mulk, mol-mulkdan foydalanish imkoniyati, daromad manbalari yoki yashash vositalaridan mahrum bo'lish) ta'sirini tan oladi. Bu ta'sirlar yerni doimiy yoki vaqtinchalik, to'liq yoki qisman, majburiy ravishda olib qo'yish yoki yerdan foydalanish yoki undan foydalanish imkoniyatini majburiy ravishda cheklashdan kelib chiqishi mumkin.

Majburiy ko'chirish, ko'chirilayotgan shaxslar yer uchastkalarini olib qo'yilishiga rozilik berish imkoniyatiga ega bo'limgan hollarda quyidagi hollarda uzaga keladi; i) yerlar majburiy boshqa shaxsga o'tkazish huquqi asosida qonuniy ekspropriatsiya jarayoni yo'lli bilan olib qo'yiladi; yoki (ii) muzokaralar samarasiz bo'lgan taqdirda, ekspropriatsiya boshlanishi mumkin bo'lgan muzokaralar natijasida yer olib qo'yilishi mumkin. OTB quyidagi xususiyatlarga ega ko'chirilgan shaxslarni kompensatsiya olish huquqiga ega deb tan oladi:

- qonuniy huquqlar yoki yerga egalik huquqiga ega shaxslar;
- hech qanday rasmiy yoki qonuniy huquqlarga ega emas, lekin milliy qonunchilikda tan olingen yerga da'vogar shaxslar
- yerni egallab turishsa-da, unga nisbatan rasmiy qonuniy huquqlarga ega emas shaxslar.

Kompensatsiya yerni almashtirish sifatida taqdim etilishi kerak, aks holda pul kompensatsiyasi to'liq o'rnni bosish qiymati hisobida amalga oshirilishi kerak; undan tashqari, qo'shimcha yordam berilishi va tirikchilik manbalarini tiklash tadbirlari o'tkazilishi kerak. To'liq o'rnni bosish qiymati hisobida kompensatsiya Loyiha qurilishi boshlanishidan oldin to'lanishi kerak.

Ko'chirish rejasи zarar ko'rgan odamlar va mahallalar bilan maslahatlashgan holda va ularning ishtirokida tayyorlanishi kerak. Buning doirasida shikoyatlarni hal qilish mexanizmi yaratilishi kerak. Ko'chirish rejasи OTB veb-saytida e'lon qilinadi va OTBning himoya choralariga muvofiqligi bo'yicha monitoring va hisobot berish faoliyati, ayrim hollarda tashqi ekspertlar yoki NTTlar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'ladi.

### **3.3.3 YeTTB Ishlash talablari**

YeTTBning ko'chirish va tirikchilik manbalarini tiklash talablari birinchi navbatda "Yerni olib qo'yish, Yerdan foydalanish bo'yicha cheklovlar va majburiy ko'chirish"da va IT 10 – "Axborotni oshkor qilish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish" - IT 5da keltirilgan.

IT 5 majburiy ko'chirishni loyiha bilan bog'liq yerni olib qo'yish va/yoki yerdan foydalanish bo'yicha cheklovlar natijasida jismoniy ko'chirish (mol-mul yoki resurslarni yo'qotish)

va/yoki iqtisodiy ko'chirish (daromad manbalari yoki tirikchilik vositalarini yo'qotishga olib keladigan mol-mulk yoki resurslardan foydalanish imkoniyatini yo'qotish) sifatida belgilaydi"<sup>11</sup>.

IT 5 talablari quyidagilardan iborat:

- Muqobil loyiha sxemasini o'rganish orqali majburiy ko'chirishni oldini olish yoki oldini olish mumkin bo'lmasa, minimallashtirish;
- Yerni olib qo'yish yoki ta'sirga uchragan shaxslarning mol-mulki va yerlardan foydalanishiga va ulardan foydalanish imkoniyatiga cheklovlар qo'yish natijasida yuzaga keladigan salbiy ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarni quyidagilar orqali yumshatish: (i) o'rnnini bosish qiymati hisobida mol-mulkka yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya to'lash; va (ii) ko'chirish bo'yicha tadbirlar to'g'risida tegishli ma'lumotlarni oshkor qilish, maslahatlashuvlar va zarar ko'rganlarning xabardor ishtiroki bilan amalga oshirilishini ta'minlash;
- Ko'chirilganlarning turmush sharoiti va turmush darajasini ko'chirishgacha bo'lgan darajaga qaytarish yoki iloji boricha yaxshilash; va
- Tegishli uy-joy bilan ta'minlash, shu jumladan ko'chirish joylarida yashash huquqini ta'minlash orqali jismoniy ko'chirilganlarning yashash sharoitlarini yaxshilash.

Yer bilan bog'liq tranzaktiyalarning quyidagi turlari IT 5 ni ishga tushiradi:

- qabul qiluvchi davlatning huquqiy tizimiga muvofiq ekspropriatsiyoki boshqa majburiy tartib-qoidalar orqali olingan yer huquqlari yoki yerdan foydalanish huquqi;
- agar muzokaralar samarasiz bo'lishi natijasida ekspropriatsiya yoki boshqa majburiy jarayonlar boshlansa - mulk egalari yoki yerga qonuniy huquqlarga ega bo'lganlar bilan kelishilgan holda ko'chirish yo'li bilan olingan yerga bo'lgan huquqlar yoki yerdan foydalanish huquqlari, shu jumladan mamlakat qonunchiligidan tan olingan yoki tan olinishi mumkin bo'lgan odatiy yoki an'anaviy huquqlar; va
- bunday huquqlar yoki cheklovlар muzokaralar, ekspropriatsiya, majburiy sotib olish yoki davlat tomonidan tartibga solish yo'li<sup>12</sup> bilan olinganligidan qat'i nazar,

<sup>11</sup> YeTTB, Ishlash talablari 5 (YeTTB EIS 2019 yilda)

<sup>12</sup> Bu o'zlari egallab turgan yerga tan olinadigan qonuniy huquqi yoki da'vosi bo'limgan shaxslarni ham o'z ichiga oladi.

odamlarning jismoniy aktivlar yoki tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatini yo'qotishiga olib keladigan cheklovlarini joriy etish.

IT 10 ning yerni olib qo'yish jarayoniga qo'yiladigan maxsus talablari quyidagicha: ta'sirga uchragan shaxslarga muvofiqlik talablarini aniqlashda, kompensatsiya paketlari, ko'chirish bo'yicha yordamni tanlashda va yerni olib qo'yish va tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlar uchun taklif qilingan muddatlar bo'yicha muzokaralarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash zarurati. YeTTB IT 10 maqsadlariga mos keladigan natijalarga erishish uchun yerni olib qo'yish jarayonini amalga oshirish, monitoring qilish va baholash jarayonida maslahatlashuvlar davom etishi kerak.

### **3.3.4 Ekvator Prinsiplari**

Ekvator Prinsiplari IV moliyaviy institutlar tomonidan qabul qilingan xavflarni boshqarish hadli tuzilmadir. Kreditor Ekvator Printsiplarini imzolagan bo'lishi kutilmoqda va shuning uchun Ekvator Printsiplari talablariga javob beradigan moliyaviy institutlar hisoblanadi. Belgilanmagan mamlakatlardagi barcha loyihalar, masalan, O'zbekistonda, milliy qonunlar hamda XMK Ishlash standartlari va Jahon bankining Atrof-muhit, Sog'liqni saqlash va Xavfsizlik bo'yicha Qo'llanmalari talablariga muvofiqligini ko'rsatishi shart<sup>13</sup>. XMK Ishlash standartlari 4.3.1-bo'linda yoritilgan.

## **3.4 Kreditor talablari va milliy qoidalar o'rtaсидаги farqni tahlil qilish**

4.1-bo'limga kiritilgan O'zbekiston qonunchiligi XMK, OTB va YeTTBning ko'chirish va tirikchilik manbalarini tiklash tadbirlarini o'tkazish bo'yicha bir qancha talablariga mos kelmaydi/javob bermaydi. XMK, OTB va YeTTB talablari juda o'xshash bo'lgani uchun ular bir ustunda birlashtirilgan. O'zbekiston qonunchiligi va Kreditor (XMK/OTB/YeTTB) talablari o'rtaсидаги farqlar va tafovutlar quyidagi 6-jadvalda jamlangan.

<sup>13</sup> Jahon banki guruhining 20-sonli Atrof-muhit, Sog'liqni saqlash va Xavfsizlik bo'yicha Qo'llanmalari XMK ishslash standartlarida tavsiflanganidek, Ilg'or xalqaro sanoat amaliyoti (IXSA) misollarini o'z ichiga olgan texnik ma'lumotnoma hujjatlaridir.

6-jadval: Milliy qonunchilik, OTB HSB, YeTTB IT 5 va IT 10 va XMK IS 5 o'rtasidagi asosiy tafovutlar

Tarkibiy qism	OTB HSB, YETTB IT 5 va XMK IS 5	O'zbekiston Qonunchiligi	Farqni qisqartirish choralar
Ko'chirishning oldini olish yoki minimallashtirish	Loyihani ishlab chiquvchisi jismoniy va/yoki iqtisodiy ko'chirishning oldini olish va iloji bo'limganda, amalga oshirish mumkin bo'lgan muqobil loyihalarni ko'rib chiqishi kerak.	O'zbekiston Hukumati mamlakatdagi barcha yer uchastkalarining egasi sifatida davlat va jamoat ehtiyojlari uchun, ayniqsa yer davlat xizmatlarini, hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash yoki muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hollarda yer uchastkalarini olib qo'yishi mumkin.	Loyiha mahalliy yerdan foydalanuvchilarga barcha ta'sirlarni ko'rib chiqdi va jismoniy va iqtisodiy ta'sirlarning oldini olish yoki minimallashtirish uchun eng yaxshi variantni taklif qildi.
Rejalashtirish jarayoni	Loyihani ishlab chiquvchisi loyiha bilan bog'liq xavf va ta'sirlarni oldini olish uchun yerni olib qo'yish rejası/ko'chirish rejası/tirikchilik manbalarini tiklash rejasini ishlab chiqishi kerak.	Belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq, O'zbekiston Hukumati faqatgina yerga bo'lgan huquqni olishni talab qiladi, yerni olib qo'yish rejasini, ko'chirish rejasini yoki tirikchilik manbalarini tiklash rejasini tayyorlash uchun hech qanday talab yo'q.	Loyiha doirasida OTB HSB, IT5 va IS5 talablariga muvofiq TTR tayyorlandi, O'zbekistonda barcha yerlar hukumatga tegishli bo'lgani uchun, yerni olib qo'yish holati mavjud bo'limganligi hisobiga, barcha aniqlangan ta'sirlarga yerni ijaraga olganlar yoki norasmiy ravishda yerdan foydalanuvchilar uchraydi.
Kompensatsiyani olish huquqiga ega bo'lish	Loyihani ishlab chiquvchisi potensial ta'sirga uchragan odamlarni (jumladan, barcha yerdan foydalanuvchilar va loyiha tomonidan iqtisodiy jihatdan ko'chiriladigan odamlar/jamoalarni) sinchiklab o'rganishi va kompensatsiya olish huquqiga ega bo'lganlarning huquq matrisasini tuzishi kerak.  Ular mulk huquqining yo'qligi kompensatsiya, ko'chirish va tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha yordamni olish uchun to'siq bo'lishiga yo'l qo'ymasliklari kerak.	O'zbekiston qonunchiligi faqat qonuniy yer egalarini tan oladi. Ta'sirga uchragan mulk masalasi bo'yicha, ro'yxatga olingan inshootlar bilan bir qatorda ro'yxatga olinmagan inshootlar uchun ham kompensatsiya to'lanishi kerak.  Boshqa barcha ta'sirga uchragan shaxslar (masalan, yerni olib qo'ish tufayli ishini yo'qotgan ishchilar - iqtisodiy ko'chirishga uchragan shaxslar) kompensatsiya olish huquqiga ega emaslar.	Loyiha barcha iqtisodiy ko'chirishga uchragan shaxslarni (rasmiy va norasmiy yer foydalanuvchilari va loyihani amalga oshirish natijasida tirikchilik manbalaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan har qanday shaxs) OTB HSB, YeTTB IT5 va XMK IS5 ga asosan kompensatsiya olish huquqiga egaligini aniqladi. XMK IS5ga muvofiq, loyiha hududi yaqinidagi barcha mahallalarda yashovchi shaxslar kompensatsiyani olishlari mumkin.  Loyiha bo'yicha hech qanday jismoniy ko'chirish ta'siri aniqlanmagan.
Ko'chirilgan odamlar uchun kompensatsiya va imtiyozlar	Loyihani ishlab chiquvchisi iqtisodiy ko'chirishga uchragan mahallalar va odamlarga eskirish yoki hisobdan chiqarilgan materiallar uchun chegirmalarsiz va mulkka keltirilgan zarar uchun to'liq o'rnni bosish qiymati bo'yicha kompensatsiyani taklif qiladi (joriy bozor qiymati va har qanday tranzaksiya uchun to'lovlar), va ko'chirish paytida har qanday yo'qotilgan daromad uchun kompensatsiya to'laydi.  Natural shaklda kompensatsiya (yer uchun yer va uy uchun uy) tavsiya etiladi.	Amaldagi qonun hujjatlari quyidagilarni qamrab oladi: <ul style="list-style-type: none"><li>• Ta'sirga uchragan inshootlar/ekinlar/mulk uchun to'liq bozor qiymati;</li><li>• Yerga bo'lgan huquq (chunki yer uchun yer berish shaklidagi kompensatsiya endi amal qilmaydi);</li><li>• Ko'chirish davrida qo'llab-quvvatlash (transport, jismoniy yoki iqtisodiy ko'chirish vaqtida vaqtincha ijara haqini qoplash);</li></ul> Iqtisodiy ko'chirishga uchragan odamlarga bir yil uchun boy berilgan foya qoplanishi kerak.	Barcha baholashlar va hisob-kitoblar xalqaro standartlarga emas, balki O'zbekiston qonunlariga asoslanganligi va rasmiy LTOSh bilan bog'liq bo'lganligi uchun, barcha LTOShlarga yetkazilgan zararlar to'liq o'rnni bosish qiymati bo'yicha qoplanadi.  O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq yer uchun yer berish shaklidagi kompensatsiya berish imkoniyati yo'q, shuning uchun, qo'llanishi mumkin hollarda, LTOShlarga boshqa yer uchastkasini sotib olishi uchun pul kompensatsiyasi beriladi (hozirda bu jarayon boshlanmagan).  O'zbekiston qonunchiligidagi ko'ra, yer uchun yer berish ko'zda tutilmagan,

Tarkibiy qism	OTB HSB, YETTB IT 5 va XMK IS 5	O'zbekiston Qonunchiligi	Farqni qisqartirish choralari
	Ko'chirilgan odamlarning tirikchilik darajalari yashash joylaridan ko'chganlaridan oldin qanday bo'lsa, keyin ham xuddi shunday yoki undan yaxshiroq bo'lishi kerak.	Boshqa tegishli xarajatlar LTOSHLAR va loyihami ishlab chiquvchi o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida hal qilinishi kerak.	chunki yer ijarasi jismoniy shaxs tomonidan elektron kimoshdi savdosi tizimi orqali sotib olinishi kerak (va LTOSHLAR nomidan loyiha tomonidan sotib olinmaydi), shuning uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan hollarda, LTOSHLARGA boshqa yer uchastkasini ijaraga olish uchun pul kompensatsiyasi taqdim etiladi.  LTOSHLARNING tirikchilik darajalari loyiha boshlanishidan oldin qanday bo'lsa, loyihadan keyin ham xuddi shunday yoki undan yaxshiroq bo'ladi.  Loyiha uchun hech qanday jismoniy ko'chirish ko'zda tutilmagan. Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiy ko'chirish uchun belgilangan.
Tirikchilik manbalari boy berilganligi uchun kompensasiya	Tirikchilik manbalarini qayta tiklash va ko'chirish jarayonida yordam ko'rsatish. O'tish davri xarajatlarini qoplash.  Yerdan tashqari, yo'qotilgan mulk, shu jumladan ekinlar, daraxtlarni sug'orish infratuzilmasi va boshqa melioratsiya ishlari uchun kompensasiya.	Yer ijarasi (davlatdan ijaraga olingan) yerni boy berish uchun pul shaklida qoplanadi.  Ta'sirga uchragan yer/ekin/daraxt/inshoot va o'tish davri uchun LTOSHLARGA kompensasiya to'lanishi kerak. Tirikchilik manbalari uchun kompensasiya to'lash ko'zda tutilmagan. Biroq, qonunchilikda, agar LTOSHLARGA boshqa har qanday moddiy yordam kerak bo'lsa, ularga yordam (pul/natural shaklida) ko'rsatishga ruxsat berilgan.	Loyiha barcha kompensasiya olishga haqli bo'lgan odamlarga/mahallalarga Loyiha natijasida hozir va kelajakda boy beriladigan tirikchilik manbalari uchun kompensasiya to'laydi.  O'zbekiston qonunchiligidagi yer uchun yer berish shaklidagi kompensasiya berish belgilanmagan (yuqorida aytilganidek), shuning uchun, qo'llanishi mumkin bo'lgan hollarda, LTOSHLARGA boshqa yer uchastkasini sotib olishi uchun pul kompensatsiyasi beriladi.
Ijtimoiy-iqtisodiy baholash	Loyiha ishlab chiquvchisi ko'chirilgan shaxslarning boshlang'ich ijtimoiy-iqtisodiy baholashini amalga oshirishi kerak	Ko'rib chiqilmagan.	Barcha aniqlangan LTOSHLAR o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy so'rovlar o'tkazildi. So'rov natijalariga ko'ra tegishli yordam taklif etildi.
Kompensatsiya to'lovlar	Loyiha ishlab chiquvchisi barcha kompensatsiyalar to'langanidan keyingina yer uchastkasiga egalik qilishi kerak.	Yerni hozirgi egasidan olib qo'yish, shuningdek, boshqa joyga ko'chirish kompensatsiya to'langanidan keyingina amalga oshirilishi mumkin.	Tafovut yo'q. Kompensatsiya to'lovlar to'lanmagunicha va mulk/hudud bo'shatilmagunicha hech qanday qurilish (shu jumladan, maydonchaga safarbarlik ishlari) amalga oshirilmaydi.
Imtiyozlar berish	Ko'chirilgan shaxslarga loyiha imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati berilishi kerak <sup>14</sup>	Ko'rib chiqilmagan.	Tegishli hollarda, Loyiha LTOSHLARGA loyiha imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, jumladan ishga yollash masalalarida ularga ustuvorlik berish va korporativ ijtimoiy mas'uliyat imkoniyatlaridan foydalanish.
Ta'sirga uchragan mulkni inventarizasiya	Loyiha ishlab chiquvchisi barcha aniqlangan LTOSHLARGA oxirgi sanalarini e'lon qilishi va boy berilgan mulkni, shu jumladan yer, ekinlar, daraxtlarni	Mahalliy qonunchilikka ko'ra, yakuniy sanalar talab etilmaydi. Inventarizasiya loyihami ishlab chiquvchisi yoki yerni olib qo'yishni	Loyiha vakillari barcha aniqlangan yerdan foydalanuvchilar bilan muzokaralar olib bordi, yakuniy sanani kelishib, uni ommaga oshkor qildi.

<sup>14</sup> Imtiyozlar mahalliy ishga yollash, korporativ ijtimoiy mas'uliyat imkoniyatlari va loyihaga xos imtiyozlar, masalan, yo'llarning holatini yaxshilash yoki ularni kengaytirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Tarkibiy qism	OTB HSB, YETTB IT 5 va XMK IS 5	O'zbekiston Qonunchiligi	Farqni qisqartirish choralari
qilish va yakuniy sanani belgilash	sug'orish infratuzilmasi va boshqa melioratsiya ishlarini inventarizasiyadan o'tkazishi kerak.	talab qiluvchi tashkilot hisobidan amalga oshiriladi.	
Ta'sir va ta'sirlarni yumshatishni baholashda gender bo'yicha tabaqalashtirilgan yondashuv	Tirikchilik manbalarini tiklash rejalarini ishlab chiqishda ushbu turli xil ta'sirlarni, genderga xos cheklovlarini va gender bo'yicha mas'uliyatni tushunish juda muhim, chunki yerni olib qo'yish, joyni almashtirish va ko'chirish erkaklar va ayollarga har xil ta'sir qilishi mumkin.	O'zbekiston qonunchiligidagi ta'sirni genderga qarab aniqlash talab qilinmaydi.	Mumkin bo'lgan hollarda, Loyiha tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar ajratildi va erkaklar va ayollar uchun turli xil yerni olib qo'yish va va tirikchilik manbalariga ta'sirlarni aniqladi, ular kompensatsiya va tirikchilik manbalarini tiklash tadbirlarini belgilashda hisobga olingan.
Ijtimoiy ehtiyojmand odamlar guruhlari	Ijtimoiy ehtiyojmand guruhi, jumladan, ayollar kompensatsiya olish huquqiga ega ekanligini bi'lislari kerak. Loyiha ishlab chiquvchisi LTOSHLAR orasidagi ijtimoiy ehtiyojmand odamlarga asosiy ehtiyojlariga qarab, kompensatsiyaga qo'shimcha ravishda yordam ko'rsatishi kerak.	Ijtimoiy ehtiyojmand guruhi uchun nomoddiy shakldagi qo'llab-quvvatlash kabi qo'shimcha maxsus yordam berish qonun hujjalarda talab qilinmaydi. Loyiha ishlab chiquvchisi o'z xohishiga ko'ra LTOSHLarga qo'shimcha yordam ko'rsatishi mumkin.	Aniqlangan ijtimoiy ehtiyojmand guruhlarga OTB, YeTTB va XMK talablariga muvofiq yordam ko'rsatiladi.
Axborotni oshkor qilish	Loyihani ishlab chiquvchisi muntazam ravishda manfaatdor tomonlar, shuningdek, LTOSHLAR/ta'sirga uchragan mahallalar bilan uchrashuvlar tashkil qilishi va ularni loyihaning joriy holati to'g'risida xabardor qilishi kerak. Loyiha ko'chirishni rejalashtirish hujjalari va ularning yangilangan versiyalarini oshkor qilishi kerak.	Amaldagi qonunchilikka muvofiq (781-sonli Qonun) loyiha ishlab chiquvchisi LTOSHLAR bilan muntazam ravishda muloqot olib borishi kerak.  Yerni olib qo'yish to'g'risidagi ma'lumotlar mahalliy hokimiyat organlarining veb-saytlarida ommaviy ravishda e'lon qilinishi kerak.	Loyiha TTTR jarayoni uchun manfaatdor tomonlar matrisasini tuzdi va barcha tegishli manfaatdor tomonlar bilan mazmunli maslahatlashuvlar olib borishda davom etmoqda. TTTR "Masdar", OTB va YeTTB veb-saytlarida va manfaatdor tomonlarga ularga mos ravishda oshkor qilinadi.
Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar	Loyiha ishlab chiquvchisi loyihaning dastlabki bosqichida barcha LTOSHLAR/ta'sirga uchragan mahallalar xabardor bo'lishini ta'minlashi va ular bilan ehtimolli ta'sirlar, variantlar va muqobillar va huquqlarni taqdim etish haqida maslahatlashishi kerak.	781-sonli Qonun talablaridan kelib chiqqan holda, loyiha ishlab chiquvchisi yerni olib qo'yish uchun ko'pchilik LTOSHLarning roziligini olish uchun rejalashtirish bosqichida LTOSHLAR bilan jamoatchilik eshituvini o'tkazishi kerak.	Jamoatchilik eshituvlari uchun mahalliy talablar kreditorlar talablariga to'liq javob bermaydi. Jamoatchilik eshituvlari, shuningdek, qo'shimcha jalb etish tadbirlari va LTOSHLAR bilan mazmunli maslahatlashuvlar o'tkaziladi.
Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi	Loyiha ishlab chiquvchisi TTTRni amalga oshirish davomida manfaatdor tomonlar va LTOSHLAR bilan muloqot qilish mexanizmini yaratishi kerak. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi orqali olingan	Qonunga ko'ra, tirikchilik manbalarini boy berish bilan bog'liq shikoyatlarni hal qilish rasmiy mexanizmi mavjud emas.  Shu bilan birga, loyiha ishlab chiquvchisi butun ko'chirish jarayoni	Loyiha doirasida mustaqil Shikoyatlarni hal qilish mexanizmi yaratildi va shikoyatlar jurnali yuritilmoqda. Bu LTOSHLarga loyiha ishlab chiquvchi yoki uning LXQ pudratchisi bilan bevosita muloqot qilish imkonini beradi.

Tarkibiy qism	OTB HSB, YETTB IT 5 va XMK IS 5	O'zbekiston Qonunchiligi	Farqni qisqartirish choralar
	barcha shikoyatlar o'z vaqtida ko'rib chiqilishi kerak.	davomida LTOSHLAR bilan aloqada bo'lishi kerak.  Bundan tashqari, LTOSHLAR har qanday tegishli davlat tashkilotiga shikoyat topshirishlari mumkin.	
TTTR/KHRni amalga oshirish monitoringi	Maslahatlashuvlar barcha bosqichlarda olib borilishi talab etiladi: amalga oshirish, monitoring qilish va kompensatsiya to'lovlarini baholash, shuningdek, LTOSHLAR/ta'sirga uchragan mahallalar bilan ham maslahatlashuvlar olib boriladi.  TTTR amalga oshirilgandan so'ng OTB tugarish auditini o'tkazishni talab qiladi.	Monitoring talab qilinmaydi.	Loyiha TTTRni tayyorlash va amalga oshirishni monitoring qilish va baholash uchun maxsus rejani ishlab chiqdi. Hisobot berish TTTR talablariga muvofiq amalga oshiriladi.  TTTRni amalga oshirish tugallangandan so'ng yakuniy audit o'tkaziladi.

## 4 Ijtimoiy-iqtisodiy va aholini ro'yxatga olish so'rovnomasи

### 4.1 Umumiylumot

EITB uchun ta'sir hududidagi (TH) mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi quyidagi bo'lidlarda keltirilgan. Tavsif 2023 yil 12-17 oktyabr kunlari TH mahallalarida o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnoma natijalari asosida ishlab chiqilgan. TH mahallalaridagi 4209 ta xonodon aholisi orasida jami 358 ta so'rovnoma o'tkazilgan.

2024 yil 21 iyuldan 9 avgustgacha bo'lgan davrda LTOSHLAR (LTOUX va ishchilarning oilalari) bilan aholini ro'yxatga olish so'rovnomasи o'tkazildi. Umumiylumotda so'rovnomada yetta fermer (fermer xo'jaligi F02 so'rovnomada ishtirok etishdan bosh tortdi<sup>15</sup>, shuningdek, fermer xo'jaliklari F03 va F08 bitta uy xo'jaligiga tegishli bo'lganligi sababli ular faqat bitta so'rovnomaga javob berdilar), ularning 16 ishchisi va Loyiha ta'siriga uchragan to'rtta mustaqil cho'pon ishtirok etdi. Jami so'rovnomada ishtirok etgan uy xo'jaliklari soni 27 tani tashkil etdi. Qo'shimcha ravishda, 2024 yil oktyabr oyida 5 mavsumiy ishchi (8 mavsumiy ishchilardan) bilan so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada ishtirok etgan shaxslarning yoshi 20 yoshdan 69 yoshgacha bo'lgan.

So'rovlар yakunlanganidan so'ng, ba'zi fermer va ishchi oilalari aslida bir xil uy xo'jaligiga mansub ekani aniqlangan. Shuning uchun umumiyl LTOUX soni 28 taga teng deb belgilandi. Yangi LTOUX haqida qo'shimcha ma'lumot olish va mavjud ma'lumotlardagi bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida 2024-yilning to'rtinchi choragida qo'shimcha intervyular va maslahatlashuvlar o'tkazildi.

So'rovlар va LTOUX hamda ishchi oilalari bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar natijalarining umumiyl xulosasi quyidagi bo'lidlarda keltirilgan.

### 4.2 Demografik ma'lumotlar

TH mahallalari (Yangiobod, Xalqobod, Batosh va Oynako'l mahallalari) 2022 yilda mos ravishda 6510, 4936, 4907 va 5677 kishini tashkil etdi. TH mahallalarining jinslar bo'yicha taqsimoti deyarli teng bo'lib, erkaklarning soni biroz ko'proq bo'lib (50,8%), ayollar esa 49,2% ni tashkil etdi. Uy xo'jaliklari 85,5% erkaklar boshchiligidagi bo'lsa, ayollar boshchiligidagi uy xo'jaliklari TH uy xo'jaliklarining 14,5% ini tashkil etadi.

<sup>15</sup> Ushbu LTOSH bilan bog'lanish uchun mahalliy hukumat kanallari orqali turli urinishlar amalga oshirildi, biroq muvaffaqiyatga erishilmadi.

Loyiha ta'sirini baholash va ijtimoiy-iqtisodiy asosni shakllantirish maqsadida ushbu TTTR tayyorlanishi davomida LTOSh bilan intervylar o'tkazildi. Intervyularning aksariyati uy xo'jaligi rahbarlari bilan o'tkazildi. Jami 28 ta LTOUX orasida faqat bitta uy xo'jaligi ayol tomonidan boshqariladi (F04), qolganlarida esa boshliq erkaklardir. Shuningdek, bitta LTOUXga tegishli bo'lган ikkita fermer xo'jaligi mavjud (F03 va F08). Bundan tashqari, to'rtta fermer xo'jaligida (F01, F03, F05 va F06) bir nechta oila a'zolari ishlaydi. Ushbu fermer xo'jaliklari va ulardagi qarindoshlik munosabatlari (masalan, o'g'il) 7-jadvalda keltirilgan. O'rtacha hisobda, har bir LTOShlar oilasi va ishchilar oilasi 5-6 uy xo'jaligi a'zolaridan iborat.

#### 4.2.1 Ta'siriga uchragan uy xo'jaliklari

Umumiy hisobda 9 ta fermer xo'jaligi (8 nafar fermerga tegishli, F01-F09) va ushbu xo'jaliklarda ishlaydigan 22 nafar ishchi aniqlangan. Ular quyidagicha tasniflanadi:

- 7 ta fermer xo'jaligi, 1 ta XK va 1 ta MCHJ (F01-F09) fermer xo'jaliklari sifatida qaraladi (F03 va F08 fermer xo'jaliklari bitta LTOUXga tegishli).
- 22 nafar ishchi (W01-W20 va W22-W23) – 8 nafar mavsumiy ishchi va 14 nafar doimiy ishchi o'zlariga tegishli hamda boshqa shaxslarga qarashli chorvalarni ushbu yerda boqadi.
- 4 nafar cho'pon (H01–H04) loyiha maydonida o'z va ijaraga olingan chorvalarni boqish uchun ushbu yerdan foydalanadi.
- 22 ta chorvani ijaraga beruvchi uy xo'jaliklari (ChIUX) bilvosita ta'sir ostida deb hisoblanadi, chunki ularning chorvasini boqadigan chorvadorlar ta'sir ostida deb hisoblanadi (quyida bat afsil muhokama qilinadi)
- Umuman olganda, loyiha ta'siriga uchraydigan 28 ta uy xo'jaligiga mansub 165 nafar shaxs aniqlangan<sup>16</sup> va 22 ChIUX bilvosita ta'siriga uchraydi. Ularning taqsimoti quyidagicha:

7-jadval. LTOUX oila a'zolarining taqsimoti

Nº	Tuman	LTOUX kodi	Uy xo'jaligi a'zolari soni
1	Qamashi	F01	10
2	Qamashi	F02	5 (o'rtacha songa asoslangan baholash)
3	G'uzor	F03	6
4	G'uzor	F04	4 (Ayol boshchiligidagi uy xo'jaliklari)
5	G'uzor	F05	7
6	G'uzor	F06	4

<sup>16</sup> Eslatma: ushbu LTOUXlar soni taxminiy hisoblanadi, chunki ba'zi LTOUXlar bilan maslahatlashish imkon bo'lmagan. LTOShlar soni taxminan hisoblangan hollarda, bu 4-jadvalda ko'rsatilgan.

<b>№</b>	<b>Tuman</b>	<b>LTOUX kodi</b>	<b>Uy xo'jaligi a'zolari soni</b>
7	G'uzor	F07	5
8	G'uzor	F08	F03 bilan bir xil LTOUX.
9	G'uzor	F09	5
10	Qamashi	W01	5
11	Qamashi	W02	5
12	Qamashi	W03	5
13	Qamashi	W04	11
14	Qamashi	W05	F01 ning o'g'li
15	Qamashi	W06	4
16	G'uzor	W07	6
17	G'uzor	W08	2
18	G'uzor	W09	6
19	G'uzor	W10	5
20	G'uzor	W11	6
21	G'uzor	W12	10
22	G'uzor	W13	F05 ning o'g'li
23	G'uzor	W14	F05 ning o'g'li
24	G'uzor	W15	5
25	G'uzor	W16	9
26	G'uzor	W17	4
27	G'uzor	W18	8
28	G'uzor	W19	F01 ning o'g'li
29	G'uzor	W20	5
30	G'uzor	W22	F06 ning o'g'li
31	G'uzor	W23	F06 ning o'g'li
32	Qamashi	H01	5
33	G'uzor	H02	7
34	G'uzor	H03	6
35	G'uzor	H04	5
Jami fermerlar		F01-F09	46
Jami ishchilar		W01-W04, W06-W12, W15-W18, W20	96
Jami cho'ponlar		H01-H04	23
<b>Jami</b>		28	165

Eslatma: LTOSh (W21) ning ismi dastlabki so'rov paytida F06 tomonidan noto'g'ri taqdim etilgan. F06, mahalla va hokimiyat bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar natijasida ushbu ishchi mavjud emasligi aniqlangan.

Chorva egalari nomidan (LRH01-LRH22) hayvonlarni boqadigan LTOShlar guruhi mavjud. Loyiha davomida 22 ta chorvani ijara beruvchi uy xo'jaligi aniqlangan bo'lib, ular o'z chorvalarini LTOUX bo'lgan cho'ponlarga natura (ya'ni, chorva hayvonlari bilan) haq to'lash

sharti bilan ijaraga bergen. ChiUXlar chorvadorlarga chorva ijaraga bergenligi sababli, chorvadorlar boqayotgan chorvalar sonini kamaytirishga majbur emas, chunki ular uchun muqobil yer maydoni aniqlangan; ushbu chorvani ijaraga beruvchi uy xo'jaliklari loyiha natijasida bevosita zarar ko'rishi kutilmayapti. Biroq ularning hayvonlarini boqayotgan cho'pon LTOUXlarga loyiha ta'sir ko'rsatishi sababli, ular bilvosita ta'sirlangan LTOSh sifatida e'tirof etilgan<sup>17</sup>.

Fermer xo'jaliklari (F01-F09) jami 46 nafar uy xo'jaligi a'zolaridan iborat bo'lib, ulardan 22 nafari ayollar va 24 nafari erkaklardir. Ishchi uy xo'jaliklarida jami 96 nafar a'zo bo'lib, ulardan 49 nafari ayollar va 47 nafari erkaklardir. Cho'pon uy xo'jaliklarida esa jami 23 nafar a'zo bor bo'lib, ulardan 12 nafari ayollar va 11 nafari erkaklardir.

So'rov o'tkazilgan paytda qayd etilgan eng keksa uy xo'jaligi a'zosi 79 yoshda edi (F01), eng yosh a'zo esa 8 oylik edi (W06). Uy xo'jaligi a'zolarining aksariyati mehnatga layoqatli yoshda (18-60 yosh oralig'ida) bo'lib, jami 12 nafar a'zo 60 yoshdan katta ekanligi qayd etilgan.

8-jadval. LTOUX oila a'zolari yoshi

	Fermerlar			Workers			Herders			Jami
	Ayollar	Erkaklar	Jami	Ayollar	Erkaklar	Jami	Ayollar	Erkaklar	Jami	
0-5	3	2	5	8	4	12	1	0	1	17
6-18	4	4	8	11	9	20	3	3	6	34
19-60	11	12	23	22	26	44	7	7	14	81
61+	0	2	2	4	3	7	1	1	2	11
No response	4	4	8	4	5	14	0	0	0	22
Total	22	24	46	49	47	96	12	11	23	165

Eslatma: Fermerlar va ishchilar ustunlarida javob bermagan shaxslarning jinsi bo'yicha ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun, ular umumiyl jinsiy nisbatga muvofiq taqsimlandi.

Loyiha ta'siri ostidagi uy xo'jaliklarida yosh diapazonlari yoki erkak va ayollarning soni o'rtaida sezilarli farq mavjud emas. Shuningdek, fermerlar, ishchilar va cho'ponlar orasida ham sezilarli tafovut kuzatilmagan.

### 4.3 Etnik tarkib va din

Barcha so'rovdan o'tgan LTOUXlar o'zbek millatiga mansub. Ushbu masala nozikligi sababli, ijtimoiy-iqtisodiy va ro'yxatga olish so'rovnomalarida din bilan bog'liq savollar kiritilmagan.

<sup>17</sup> Agar ChiUXlar o'zlarini loyiha tomonidan ta'sirga uchragan deb hisoblasalar, loyiha ularning da'volarini har bir holat bo'yicha alohida tartibda ko'rib chiqadi. Agar ular haqiqatdan ham ta'sirga uchragan deb topilsa, ularga huquqlar matritsasiga muvofiq kompensatsiya to'lanadi.

Biroq, umuman olganda, o'zbek millatiga mansub odamlar islom diniga e'tiqod qiladi va ikkilamchi ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat respondentlar musulmon ekanligi aniqlangan.

#### 4.4 Yer foydalanish va yer egaligi

So'rovdan o'tgan TH DAGI (ta'sir hududi) uy xo'jaliklarining aksariyatida qishloq xo'jaligi yerkari mavjud. Jami respondentlarning 96,9 foizi faqat tomorqa (uy xo'jaligi bog' maydonlari) ga ega, 2,8 foizida esa tomorqa va boshqa yer maydonlari ham bor, 0,3 foiz respondentlar esa yerga egalik qilmasligini bildirgan.

Loyiha ta'siri ostidagi barcha fermer xo'jaliklari rasmiy ravishda ijara olingan. To'rtta fermer xo'jaligi 49 yillik yer ijarasi shartnomasiga ega, uchta xo'jalik esa bir yillik ijara ega bo'lib, oxirgi to'rt yil davomida har yili yangilangan. Qolgan ikki ijara egasi esa o'z ijara muddati haqida ma'lumot bermagan.

9-jadval. Loyiha ta'sirida ostidagi fermer xo'jaliklarining yer egaligi

LTOSH nomi	Qonuniy ijara muddati	Ijara boshlangan sana	Qolgan vaqt
F01	49 yil	2010	35 yil
F02	M/B	N/R	M/B
F03/F08	1 yil	2019	1 yil
	1 yil	2019	1 yil
F04	1 yil	2019	1 yil
F05	49 yil	2016	41 yil
F06	M/B	2009	M/B
F07	49 yil	2014	39 yil
F09	49 yil	2018	43 yil

Eslatma: M/B = Ma'lumot berilmagan

Hech bir ijara huquqi qo'shma egalik shaklida emas va loyiha ta'siri ostidagi fermer xo'jaliklarining barcha yer ijaralari erkaklar tomonidan rasmiylashtirilgan. Shu bois, loyiha ta'siri ostidagi fermer xo'jaliklariga tegishli jami to'qqizta yer ijara huquqi mavjud bo'lib, ularning barchasi erkaklar tomonidan rasmiylashtirilgan. F04 fermer xo'jaligi ayol tomonidan boshqariladi, biroq fermer xo'jaligi ijara huquqi uning o'g'li nomiga rasmiylashtirilgan. Loyiha maydoni o'rniiga muqobil yer maydonidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan faqat bitta fermer xo'jaligi mavjud. F03 va F08 fermer xo'jaliklari egasi Kamashi tumanining Yertepa mahallasida qo'shimcha yer maydoniga ega.

Tomorqa yerkari O'zbekistondagi qishloq uy xo'jaliklarining aksariyatiga tegishli. U asosan uy xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalilanligiga bog' uchastkasi bo'lib, odatda uy xo'jaligi

daromadiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Fermerlarning barchasi tomorqa yerlariga egalik qiladi, bundan mustasno F04, bu 10-jadvalda keltirilgan.

*10-jadval. Loyiha ta'siri ostidagi fermerning tomorqa yer maydoni*

ID raqami	Fermerda tomorqa bormi?	Tomorqa yer maydoni (ga)
F01	Ha	4.86
F02	Ha	0.81
F03/F08	Ha	6.47
F04	Yo'q	-
F05	Ha	5.67
F06	Ha	6.07
F07	Ha	4.05
F09	Ha	10.12

Tomorqa uchastkalari odatda 0,05-0,1 hektar maydonni tashkil qiladi va shaxsiy iste'mol uchun meva va sabzavotlar, masalan, makkajo'xori yetishtirish uchun ishlataladi. Loyiha doirasidagi fermerlar o'rtacha tomorqa maydonidan kattaroq yerga egalik qilishlarini bildirgan. Ishchilar yoki cho'ponlarning tomorqalari fermerlarnikiga qaraganda kichikroq bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

#### **4.5 Loyiha hududida olib boriladigan faoliyatlar**

Kuzatuvlар davомида loyiha ta'siri ostidagi shaxslar o'з chorvalarini loyiha hududida bahor, yoz va kuz fasllarida (martdan noyabrgacha) boqishlari aniqlangan. So'rov o'tkazilgan ta'sir hududidagi uy xo'jaliklarining aksariyati (85,5%) o'з yer maydonlarini faqat shaxsiy iste'mol uchun ishlataladi, qolgan 13,9% xo'jaliklar yerlaridan ham savdo, ham shaxsiy iste'mol uchun foydalanadi. Ozchilikni tashkil etgan 0,6% xo'jaliklar esa faqat daromad olish maqsadida qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi.

Ta'sir hududidagi uy xo'jaliklarining 65,9% chorva va parrandachilik bilan shug'ullanadi, 67,1% xo'jalik qoramolga ega, 51,2% xo'jalik esa qo'y va echkilarga egalik qiladi. Faqat 2,5% xo'jalik tuyachilik bilan shug'ullanadi, 56,5% xo'jalik esa parrandachilik bilan band.

Hozirda loyiha hududida qishloq xo'jaligi faoliyati, jumladan, bug'doy va arpa yetishtirish hamda chorva boqish olib borilmoqda. Mustaqil baholovchi tomonidan loyiha hududida 481,31 hektar bog'dorchilik (sug'orilmaydigan) ekin maydonlari aniqlangan. Ushbu yerlarning barchasi bog'dorchilik uchun ishlataladi, ya'ni sug'orish tizimi mavjud emas, va bu hududda jiddiy suv tanqisligi kuzatiladi. LTOShlar so'nggi uch yil davомida qurg'oqchilik ekin hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatganini va ayrim LTOSh qarzga botganini ta'kidlagan (LTOShlarning qarzlari bo'yicha 6.8-bo'limga qarang).

Loyiha ta'siri ostidagi barcha fermer xo'jaliklari yerlaridan ham dehqonchilik, ham chorvachilik maqsadida foydalanishini bildirgan (ya'ni, ekinlar yig'ib olingandan keyin o'sha yerda chorva boqiladi), bundan mustasno F09 fermer xo'jaligi, u o'z yerida chorva boqmasligini bildirgan (biroq W16 ishchi ikkita sigirga egalik qiladi, bu haqida 6.5-bo'limga qarang), shuningdek, F08 fermer xo'jaligi ekin yetishtirish bilan shug'ullanmaydi. Ko'pgina hollarda, chorva boqish ekinlarni yig'ib olingen maydonlarda amalga oshiriladi.

*11-jadval. Loyiha ta'siri ostidagi fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi va ekinlardan foydalanish*

LTOSh kodi	Jami yer maydoni (ga)	Ekin maydoni (ga)	Yetishtiriladigan ekin turi	Yaylov uchun foydalaniladigan maydon (ga)
F01	334	200	Bug'doy va arpa	200
F02	695.6	M/B	Bug'doy va arpa	M/B
F03/F08	80	80	Bug'doy va arpa	80
	7502	0	Mavjud emas	7502
F04	79.4	79.4	Bug'doy va arpa	74
F05	450	70	Bug'doy va arpa	380
F06	113	113	Bug'doy va arpa	113
F07	43.7	43.7	Bug'doy va arpa	43
F09	75	57	Bug'doy va arpa	0

Eslatma: M/B = Ma'lumot berilmagan.

Jami LTOUXlar 4,456 bosh chorvaga ega bo'lib, 2 668 bosh chorvani ijaraga olgan (bu yerda ikki marta hisoblash mavjud, chunki fermerlar o'z chorvalarini ishchilarga boqish uchun berishadi). Ushbu chorvalar LTOSh tomonidan mavsumiy ravishda loyiha hududida va uning atrofida boqiladi, chorvaning asosiy qismini qo'yalar tashkil qiladi (12-jadvalga qarang).

*12-jadval. LTOUX bo'yicha chorva mollari*

LTOSh	Chorva	Soni	Ijaraga olinadigan chorva soni	Chorvani ijaraga beruvchi uy xo'jaliklari (ChIUX)
F01 <sup>18</sup>	Qo'y	502	0	-
	Mol	19	0	-
F03/F08	Qo'y/echki	850	0	-
F04	Qo'y	400	0	-
	Mol	20	0	-
F05	Qo'y	300	0	-
	Mol	60	0	-

<sup>18</sup> F01 dastlab faqat 5 ta qo'yini aytgan, biroq W01, W04 va W06 ishchilarini F01dan chorva ijaraga olganliklarini bildirgan, natijada F01 umumiy chorva soniga qo'shimcha ravishda 497 ta qo'y va 19 ta sigir qo'shilgan.

LTOSh	Chorva	Soni	Ijaraga olinadigan chorva soni	Chorvani ijara ga beruvchi uy xo'jaliklari (ChIUX)
F06	Qo'y	1500	0	-
	Mol	30	0	-
F07	Qo'y	150	0	-
	Mol		0	-
	Ot		0	-
W01 (F01 fermer ishchisi)	Qo'y	3	197	F01 chorvasini boqadi
	Mol	1	19	
W02 (F01 fermer ishchisi)	Qo'y	20	0	-
	Mol	2	0	
W04 (F01 fermer ishchisi)	Qo'y	30	100	F01 chorvasini boqadi
W05 (F01 fermer ishchisi)	Qo'y	8	110	Ochiqlamadi <sup>19</sup>
	Mol	26	30	
	Echki	7	30	
	Ot	2	2	
W06 (F01 fermer ishchisi)	Qo'y	10	200	F01 chorvasini boqadi
W07 (F04 fermer ishchisi)	Qo'y	20	150	F04 chorvasini boqadi
	Mol	2	0	
	Eshak	1	0	
W08 (F07 fermer ishchisi)	Qo'y	0	70	F07 chorvasini boqadi
	Echki	0	30	
W09 (F03/F08 fermer ishchisi)	Echki	10	250	F03/F08 chorvasini boqadi
W10 (F03/F08 fermer ishchisi)	Qo'y	0	600	F03/F08 chorvasini boqadi
W11 (F03/F08 fermer ishchisi)	Qo'y	150	0	-
	Echki	70	0	
W12 (F05 fermer ishchisi)	Echki	15	0	-
W13 (F05 fermer ishchisi)	Qo'y	15	0	-
	Mol	1	0	

<sup>19</sup> W05 F01ning o'g'li bo'lib, chorvani kimdan ijara olganini oshkor qilishni istamaydi. Fermer faqat beshta qo'yি borligini ta'kidlagan. Ammo biz bu chorva fermaga tegishli deb hisoblaymiz (21-izohga qarang), chunki uning boshqa ishchilari fermenting chorvasini boqishayotganini tasdiqlashgan.

LTOSh	Chorva	Soni	Ijaraga olinadigan chorva soni	Chorvani ijara ga beruvchi uy xo'jaliklari (CHIUX)
	Echki	5	0	
	Eshak	1	0	
W14 (F05 fermer ishchisi)	Qo'y	12	100	Ochiqlamadi
	Echki	5	20	
W15 (F06 fermer ishchisi)	Qo'y	0	180	Ochiqlamadi
	Mol	1	0	
	Echki	10	20	
W16 (F09 fermer ishchisi)	Mol	2	0	-
W17 (F09 fermer ishchisi)	Qo'y	12	0	
W18 (F04 fermer ishchisi)	Qo'y	20	0	-
	Mol	2	0	
W20	Qo'y	10	110	Ochiqlanmadni
H01	Qo'y	100	200	CHIUX01, CHIUX02, CHIUX03
	Mol	1	0	
H02	Qo'y	40	0	-
	Mol	1	0	
H03	Qo'y	10	100	CHIUX04, CHIUX05, CHIUX06, CHIUX07, CHIUX08, CHIUX09, CHIUX10, CHIUX 11, CHIUX12, CHIUX13, CHIUX14
H04	Qo'y	0	150	CHIUX15, CHIUX16, CHIUX17, CHIUX18, CHIUX19, CHIUX20, CHIUX21, CHIUX22
<b>Jami (Fermerlar)</b>	Qo'y, Mol, Ot	2962	0	
<b>Jami (Ishchilar)</b>	Qo'y, Echki Mol, Eshak	573	2418	
<b>Jami (Cho'ponlar)</b>	Qo'y, Mol	52	250	
<b>UMUMIY MIQDOR</b>		4,456	2,668	

Izoh: Umumiy ijara olingan chorvalarning sonida takroriy hisob-kitob mavjud, chunki ba'zi LTOShlar boshqa LTOShlarga tegishli chorvalarni ijara olgan.

## 4.6 Ta'lim

Loyiha ta'sir hududi bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, uy xo'jaliklari a'zolarining atigi 0,7%ni savodsiz deb qayd etilgan. Biroq, oliy ma'lumot darajasi ham past bo'lib, so'rangan hududda atigi 10,9%ni tashkil etadi. Ta'sir hududidagi odamlarning ko'pchiligi (51,5%) maktabning yuqori sinflarini (10-11-sinflar) tamomlagan, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar bundan mustasno. 28 ta uy xo'jaligi boshlig'idan 27 tasi o'z ta'lim darajasi haqida javob bergan. Quyidagi 13-jadvalda ko'rsatilganidek, LTOSH uy xo'jaliklari boshliqlarining aksariyati o'rta maktabni tamomlagan bo'lsa, qolgan respondentlar maxsus o'rta ta'lim olgan. So'rangan uy xo'jaligi boshliqlaridan hech biri savodsiz deb qayd etilmagan.

*13-jadval. Uy xo'jaligi boshlig'inining ta'lim ma'lumoti*

<b>Uy xo'jaligi boshlig'inining ta'lim ma'lumoti</b>	<b>LTOShlar soni</b>
Savodsiz	-
Boshlang'ich maktab	-
O'rta maktab	15
O'rta-maxsus/texnikum/kollej	12
Oliy ta'lim	-
Jami	27

Uy xo'jaligi boshliqlarining ta'lim darajasi uy xo'jaligi a'zolarining umumiyligi holatini aks ettiradi. Eng katta guruh (37%) o'rta ma'lumot olgan deb qayd etilgan. Keyingi eng katta guruh faol o'quvchilar (25%) hisoblanadi. Uy xo'jaligi boshliqlaridan farqli o'laroq, maxsus o'rta ta'lim olgan odamlar soni kamroq, shuningdek, uch nafar uy xo'jaligi a'zosi oliy ma'lumot yoki unga tenglashtirilgan ta'limga ega ekanini bildirgan.

*14-jadval. Uy xo'jaliklari a'zolarining ta'lim ma'lumotlari*

	Fermerlar			Ishchilar			Cho'ponlar			Jami
	Ayol	Erkak	Jami	Ayol	Erkak	Jami	Ayol	Erkak	Jami	
Maktabgacha ta'lim	3	1	4	8	2	10	1	0	1	15
O'quvchi	4	5	9	16	11	27	3	2	5	41
O'rta ta'lim	0	4	4	22	23	45	7	7	14	61
O'rta-maxsus ta'lim	0	3	3	0	7	9	1	1	2	12
Oliy ta'lim	0	0	0	0	2	2	0	1	1	3
Javob berilmagan	15	11	26	3	0	7	0	0	0	33
Jami	22	24	46	49	47	96	12	11	23	165

Izoh: Fermerlar ustunida javob bermaganlarning jinsi bo'yicha ma'lumot mavjud emas. Shu sababli, ular umumiyligi jinsiy nisbat asosida taqsimlandi.

Ayollar va erkaklarning ta'lim darajasi o'xshash. Oliy ta'lim olgan erkaklar soni ayollarnikidan ko'proq, oliy ma'lumotga ega ayollar qayd etilmagan. Bu erkaklar va ayollarning ta'lim

darajasidagi yagona katta farqdir. Fermerlar, ishchilar va cho'ponlar o'rtaida ham sezilarli farq yo'q.

#### 4.7 Sog'liq

Ta'sir hududida so'rovda qatnashgan respondentlarning 92,2%i uchun sog'liqni saqlash xizmatlari mavjud. Qolgan respondentlar esa tuman markazidagi yoki boshqa jamoalardagi sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishini bildirgan. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 74,6%i o'z mahalliy tibbiyat xizmatlarini yaxshi jihozlangan deb hisoblaydi, 13,7%i esa ulardan norozi ekanini bildirgan, 11,7%i esa savolga javob berishda qiyinchilikka duch kelgan.

TH jamoalarida eng ko'p uchraydigan kasalliklar o'tkir respirator kasalliklar (gripp va shamollah), yurak-qon tomir kasalliklari (yurak kasalliklari) va yuqumli kasalliklar (sariq kasallik, sil) hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy so'rov davomida loyiha ta'siriga uchragan 8 ta fermer xo'jaligi va loyiha ta'siriga uchragan ishchilarning 8 nafar uy xo'jaligi a'zosi surunkali kasallik yoki nogironlikka ega ekani aniqlangan. Qayd etilgan kasalliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qandli diabet (W12);
- Yurak-qon tomir kasalliklari (F05);
- Ko'rish qobiliyatining zaiflashishi (W13);
- Astma (W12);
- Osteoporoz (suyak yemirilishi) (F04, F03/F08);
- Harakatlanish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi jismoniy nogironlik (F04, W11);
- Saraton (W07).

So'rovda qatnashgan ishchi uy xo'jaliklaridan biri (W07) mahalliy hukumat tomonidan nogironlik nafaqasini olishini bildirgan. Cho'pon uy xo'jaliklarining hech biri sog'liq bilan bog'liq muammolar yoki nogironlik nafaqasi olishlarini qayd etmagan.

#### 4.8 Bandlik va daromad manbalari

TH DAGI uy xo'jaliklari a'zolari turli sohalarda ishlaydi va hech bir soha respondentlarning asosiy qismini tashkil etmaydi. Eng yirik bandlik sohalari pensiya oluvchilar (17,1%) va davlat sektorida ishlovchilar (15,6%) hisoblanadi. Jami respondentlarning 0,7%i rasmiy ravishda ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, rasmiy ro'yxatdan o'tmagan, biroq ish qidirayotganlar yana 13,7%ni tashkil qiladi, shuningdek 2,6% ishsiz, lekin ishlay olmaydigan yoki ishlashni xohlamaydigan shaxslar sifatida ko'rsatilgan.

So'rov natijalariga ko'ra, erkaklarning eng katta bandlik sohasi mavsumiy ishlar (29,8%) bo'lsa, ayollar orasida eng keng tarqalgan kasb uy bekasi bo'lish (22,3%) ekanligi aniqlandi.

Quyidagi jadval (15-jadval) LTOSh uy xo'jaliklari boshliqlarining bandlik turlari bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Jami 28 ta uy xo'jaligi boshlig'idan 26 tasi ushbu savolga javob berган<sup>20</sup>.

*15-jadval. Uy xo'jaliklari boshliqlarining bandlik turlari*

<b>Bandlik turi</b>	<b>LTOShlar soni</b>
Fermer	7
Cho'pon	4
Fermer xo'jaligi ishchisi	16
Jami	26

Ba'zi holatlarda, agar uy xo'jaligida kengaytirilgan oila a'zolari (ya'ni aka-uka, opa-singil, otanonalar va hokazo) bo'lsa, uy xo'jaligi daromadi boshqa daromadlar va keksa oila a'zolarining pensiyalari bilan to'ldiriladi. Bu holat beshta ishchi uy xo'jaligi (W04, W05, W07, W11, W12) va bitta cho'pon uy xo'jaligi (H02) uchun xosdir.

Loyiha ta'siriga uchragan uy xo'jaliklarida turli bandlik turlari mavjud. Eng katta guruh faol talabalar hisoblanadi. Ulardan keyin uy bekalari (faqat ayollar) va ishchilar (deyarli faqat erkaklar) joylashgan. Yetti nafar uy xo'jaligi a'zolari ishsiz ekanligi qayd etilgan. Ushbu uy xo'jaligi a'zolari loyiha doirasida ish bilan ta'minlanish imkoniyatlaridan eng ko'p foyda ko'rishi mumkin (agar ular kerakli malakaga ega bo'lsalar). Ular besh nafar ishchi uy xo'jaligi a'zolaridan (ikki erkak va bitta ayol) hamda ikki nafar cho'pon uy xo'jaligi a'zolaridan (ikkalasi ham H03 dan, ayollar) iborat.

*16-jadval. Uy xo'jaligi a'zolarining bandlik turlari*

	Fermerlar			Ishchilar			Cho'ponlar			Jami
	Ayol	Erkak	Jami	Ayol	Erkak	Jami	Ayol	Erkak	Jami	
Maktabgacha ta'lim	3	1	4	7	3	10	1	0	1	15
O'quvchi	4	5	9	16	12	28	3	3	6	43
Ishsiz	0	0	0	3	3	6	2	0	2	7
Uy Bekasi	1	0	1	17	0	18	5	0	5	23
Cho'pon	0	1	1	0	7	7	0	4	4	12
Ishchi	1	2	3	0	11	11	0	3	3	16
Nafaqaxo'r	0	1	1	5	3	8	1	1	2	11
Tikuvchi	0	0	0	1	0	1	0	0	0	1
Taksist	0	0	0	0	1	1	0	0	0	1
Traktorchi	0	0	0	0	3	3	0	0	0	3

<sup>20</sup> E'tibor bering, ishchilar sifatida ko'rsatilgan uy xo'jaligi boshliqlari soni ushbu hisobotning boshqa qismlarida qayd etilgan ishchilar sonidan farq qiladi (masalan, 14 nafar doimiy ishchi va 8 nafar mavsumiy ishchi). Chunki ushbu ishchilarning ba'zilari fermerlar oilalarining a'zolari bo'lib, ular bu yerda uy xo'jaligi boshliqlari sifatida keltirilmagan.

	Fermerlar			Ishchilar			Cho'ponlar			Jami
	Ayol	Erkak	Jami	Ayol	Erkak	Jami	Ayol	Erkak	Jami	
Quruvchi	0	0	0	0	1	1	0	0	0	1
O'qituvchi	1	0	1	0	0	0	0	0	0	1
Fermer	1	6	7	0	0	0	0	0	0	7
Hamshira	1	0	1	0	0	0	0	0	0	1
Yoshlar yetakchisi	0	2	2	0	0	0	0	0	0	2
Javob berilmagan	10	6	16	0	3	3	0	0	0	21
Jami	22	24	46	49	47	96	12	11	23	165

O'rtacha TH dagi oilaning oylik daromadi LTOUX tomonidan 5,365,100 so'm (taxminan 425 AQSh dollari) deb qayd etilgan bo'lib, jon boshiga daromad 976,000 so'm (yoki 77 AQSh dollari) ni tashkil etadi. Bu hududiy o'rtacha ko'rsatkichdan ancha past.

O'rtacha fermer LTOUX oyiga 60,952,000 so'm (4,813.81 AQSh dollari) daromad oladi, shundan 30,000,000 so'm (2,369.31 AQSh dollari) chorvachilikdan tushadi. Fermer LTOUX uchun eng katta xarajat qismi soliqlar bilan birga qishloq xo'jaligi xarajatlari bo'lib, oyiga 24,189,000 so'm (1,910.37 AQSh dollari)ni tashkil qiladi. Chorva boqish uchun sarflanadigan mablag' oyiga 20,000,000 so'm (1,579.54 AQSh dollari)ga teng. Shu bilan birga, yollangan ishchilar va oila a'zolarining ish haqi 7,085,000 so'm (559.55 AQSh dollari)ni tashkil qiladi.

Ishchi LTOUX uchun eng katta daromad manbai chorva va parrandachilik mahsulotlarini sotish bo'lib, bu 13,300,000 so'm (1,055.38 AQSh dollari)ni tashkil etadi. Eng past daromad esa ijtimoiy yordam hisoblanib, bu atigi 20,000 so'm (1.59 AQSh dollari)dir. Ishchi LTOUX uchun eng katta xarajat oziq-ovqat bo'lib, bu oyiga 8,330,000 so'm (661.00 AQSh dollari)ni tashkil qiladi, eng kichik xarajat esa transport bo'lib, oyiga 397,000 so'm (31.50 AQSh dollari)ni tashkil etadi.

Hech bir fermer LTOUX uy xo'jaligi yoki jon boshiga oylik daromadining eng kam ish haqidan (1,050,000 so'm) pastligini qayd etmagan. Shuningdek, hech bir ishchi yoki cho'pon uy xo'jaligi o'z daromadini eng kam ish haqidan past deb ko'rsatmagan.

Yetti nafar fermer LTOUXdan to'rttasi kredit olgan, asosan qishloq xo'jaligi faoliyatini moliyalashtirish uchun. Ishchilar orasida esa to'qqiz kishi turli maqsadlarda, jumladan, chorva sotib olish, dehqonchilik qilish va quduq qazish uchun kredit olgan. Faqatgina bitta LTOSh (F05) o'zining qarzi miqdorini ko'rsatgan — [REDACTED], biroq qarz muddati yoki oylik to'lovlar tafsilotlarini taqdim etmagan.

TH dagi respondentlarining atigi 1.4% o'z daromadlarini istalgan narsani sotib olish uchun yetarli deb hisoblaydi. TH dagi hamjamiyatlarining deyarli chorak qismi, ya'ni 22.3% respondentlar o'z daromadlari faqat asosiy ehtiyojlar uchun emas, balki boshqa xarajatlar uchun ham yetarli ekanini, ammo istalgan narsani sotib olish uchun yetarli emasligini ta'kidlagan. 49.4% respondentlar esa daromadlari faqat asosiy ehtiyojlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar) uchun yetarli ekanini qayd etgan. Respondentlarning chorak qismi, ya'ni 26.5% o'z daromadlari asosiy ehtiyojlarni ham qoplamasligini bildirgan.

Respondentlarning 0.3% esa hatto oziq-ovqat sotib olish uchun ham yetarli daromadga ega emasligini ta'kidlagan (bu toifaga faqat Batosh hamjamiyatida yashovchi uy xo'jaliklari kiritilgan).

O'rtacha fermer LTOUX oyiga 60,952,000 so'm (4,813.81 AQSh dollari) daromad oladi, shundan 30,000,000 so'm (2,369.31 AQSh dollari) chovachilikdan tushadi. Hech bir fermer LTOUXning oylik uy xo'jaligi yoki jon boshiga daromadi milliy qashshoqlik chizig'idan (kuniga 2.15 AQSh dollari) past emas deb ma'lumot bermadi<sup>21</sup>.

*17-jadval. Fermer uy xo'jaliklarining daromadlari*

	Maosh	Qishloq xo'jaligidan olinadigan daromad	Chovachilikdan olinadigan daromad	Boshqa manbalardan olingan daromadlar	Jami oylik daromad
F01	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F02	■	■			■
F03/F08	[REDACTED]	[REDACTED]	■	■	[REDACTED]
F04	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	■	[REDACTED]
F05	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	■	[REDACTED]
F06	[REDACTED]	[REDACTED]	■	■	[REDACTED]
F07	[REDACTED]	[REDACTED]	■	[REDACTED]	[REDACTED]
F09	[REDACTED] [REDACTED] [REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED] [REDACTED]

Eslatma: LTOSh F02 so'rovnomaga javob berishdan bosh tortdi.

Ba'zi daromadlar yillik miqdorda ko'rsatilgan bo'lib, taqqoslash maqsadida oylik ko'rinishga o'zgartirildi.

Qishloq xo'jaligi xarajatlari, shu jumladan soliqlar (bular birlgilikda ko'rsatilgan) LTOUX fermerlari uchun eng katta oylik xarajat bo'lib, undan keyingi o'rinda kredit to'lovleri turadi, ammo barcha respondentlar o'z kreditlari miqdorini ko'rsatmagan. 18-jadvalda LTOUX fermerlarining xarajatlari keltirilgan. Hech bir respondent xarajatlarining daromaddan oshib ketganini bildirmagan. So'rovda qatnashgan yetti nafar LTOUX fermerlaridan to'rt nafari kredit olganini bildirgan bo'lib, bu kreditlar asosan qishloq xo'jaligi faoliyatiga yo'naltirilgan.

<sup>21</sup> Hozirgi kunda eng kam iste'mol xarajatlari indeksi (yoki qashshoqlik darajasi) kuniga 2.15 AQSh dollariga teng, ekstremal qashshoqlik chizig'i esa 1.90 AQSh dollariga teng (2021-yildagi xarid qobiliyati pariteti ko'rsatkichiga asoslangan).

*18-jadval. Fermer uy xo'jaliklarining xarajatlari*

	Ish haqi to'lash (oilaga)	Ish haqi to'lash (ishchilarga)	Qishloq xo'jaligi xarajatlari	Kredit to'lovi	Jami xarajatlar	Xarajatlar daromaddan oshib ketadimi?
F01	[REDACTED]		[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F02	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F03/F08	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F04	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F05	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F06	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F07	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
F09	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]

Eslatma:

- LTOSh F02 so'rovnomaga javob berishdan bosh tortdi.
- Ba'zi xarajatlar yillik miqdorda ko'rsatilgan bo'lib, taqqoslash maqsadida oylik ko'rinishga o'zgartirildi.
- Faqat bitta LTOSh (F05) o'z kredit miqdorini ko'rsatgan bo'lib, u [REDACTED] so'mni tashkil etadi, biroq kredit muddati yoki oylik to'lovlar haqida ma'lumot bermagan.

Doimiy ishlovchi LTOUXlarning aksariyati asosiy daromadini ish haqi orqali oladi, lekin ko'pchiligining qo'shimcha daromadi chorva va parranda sotish yoki boshqa manbalardan keladi. Hech bir ishchi xo'jalikning jami daromadi o'sha vaqtligi eng kam ish haqidan (1 050 000 so'm) past emas, biroq bitta ishchi (W12) ish haqi miqdori eng kam ish haqidan pastligini bildirgan, shuningdek, to'rt ishchi (W04, W09 va W10) va W20 o'z ish haqi haqida ma'lumot bermagan<sup>22</sup>. Doimiy ishlovchi LTOUXlarning daromadlari 19-jadvalda keltirilgan.

Ham doimiy, ham mavsumiy ishlovchi LTOUXlar uchun eng katta oylik xarajat oziq-ovqat bo'lib, undan keyingi o'rinnarda tibbiy muolajalar va ta'lim xarajatlari turadi (garchi bu xarajatlar barcha LTOUXlarga tegishli bo'lmasa ham). 11 nafar ishchi LTOUXlarning bildirgan xarajatlari ularning daromadidan ortiq ekanligi aniqlangan. Boshqa xarajatlarning aksariyati kiyim-kechak uchun sarflangan. Doimiy va mavsumiy ishlovchi LTOUXlarning xarajatlari 20-jadvalda keltirilgan.

<sup>22</sup> Bu LTOShning javob berishdan bosh tortgani yoki so'rovnoma oluvchi tomonidan xatolik/tushunmovchilik yuzaga kelgani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar LTOShlardan monitoringning birinchi bosqichida qayta so'ralishi mumkin.

To'qqiz nafar ishchi turli maqsadlarda, jumladan, chorva sotib olish, dehqonchilik qilish va quduq qazish uchun kredit olgan. Kredit miqdorlari [REDACTED] ( [REDACTED] AQSh dollarri) dan [REDACTED] so'm ([REDACTED] AQSh dollarri) gacha bo'lган.

Shaxsiy daromad baholash jarayonida aksariyat LTOUXlar kunlik yoki asosiy ehtiyojlar uchun yetarli daromadga ega ekanliklarini bildirgan. W09 o'z daromadi haqida ma'lumot bermagan, biroq uning daromadi faqat oziq-ovqat uchun yetarli ekanligini bildirgan.

*19-jadval. Ishchi LTOUXlarning daromadlari*

	Ish haqi	Chorvachilikdan tushum	Ijtimoiy yordam	Pensiya	Nogironlik nafaqasi	Boshqa daromad	Jami daromad	Daromad bahosi
W01	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to’lovlar
W02	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W03	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W04	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W05	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W06	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to’lovlar
W07	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W08	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W09	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Faqat oziq-ovqat uchun yetarli
W10	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to’lovlar
W11	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Javob berilmagan

	Ish haqi	Chorvachilikdan tushum	Ijtimoiy yordam	Pensiya	Nogironlik nafaqasi	Boshqa daromad	Jami daromad	Daromad bahosi
W12	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar
W13	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W14	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun yetarli
W15	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar
W16	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar
W17	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar
W18	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar
W19	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Barcha ehtiyojlar uchun yetarli
W20	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	Asosiy ehtiyojlar uchun yetarli – oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar
W22	Ma'lumot taqdim etilmagan (F06 oila a'zosi)							
W23	Ma'lumot taqdim etilmagan (F06 oila a'zosi)							

*20-jadval. Ishchi LTOUXlarning xarajatlari*

	Davlat kommunal xizmatlari uchun to'lov	Oziq- ovqat xarajatlari	Ta'lim xarajatlari	Tibbiy davolanish xarajatlari	Nogironligi bo'lgan a'zolarni davolash xarajatlari	Kredit to'lovi	Transport xarajatlari	Boshqa xarajatlar	Jami xarajatlar	Xarajatlар daromaddan oshib ketganmi?
W01	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W02	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W03	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W04	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W05	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W06	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W07	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W08	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W09	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W10	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W11	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W12	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W13	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W14	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W15	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W16	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W17	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W18	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W19	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W20	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
W22	Ma'lumot taqdim etilmagan (F06 oila a'zosi)									
W23	Ma'lumot taqdim etilmagan (F06 oila a'zosi)									

Eslatma: Xarajatlari daromadidan oshib ketgan ishchilarning aksariyati kredit to'lovlariga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnoma da kreditning to'liq summasi ko'rsatilgan bo'lishi mumkin, bu esa ularning xarajatlari haqiqatdan ham yuqori ekanligini ko'rsatishi mumkin. Ushbu ma'lumot monitoring davrida tekshiriladi va zarur bo'lsa, tuzatish kiritiladi.

Ko'pchilik cho'pon LTOUX ish haqi orqali daromad olishini, qo'shimcha daromad manbai sifatida chorva/murg'larning sotilishidan tushumga ega ekanligini bildirgan. Daromot ma'lumotlarini taqdim etgan cho'pon xo'jaliklaridan biri (H01) ish haqi bo'yicha daromadi eng kam ish haqidan past ekanligini bildirgan, ammo ma'lumot bergen barcha cho'ponlarning jami daromadi eng kam ish haqidan yuqori. Cho'pon LTOUX daromadlari 21-jadvalda keltirilgan.

Cho'pon LTOUX uchun eng katta oylik xarajat oziq-ovqat bo'lib, undan keyin transport xarajatlari keladi. To'rtta cho'pon LTOUXdan uchtasi o'z xarajatlari daromadidan ko'proq ekanligini bildirgan. Cho'pon LTOUX uchun xarajatlar 22-jadvalda keltirilgan.

O'z shaxsiy daromadini baholash jarayonida, bir cho'pon LTOUX daromadi kundalik ehtiyojlar uchun yetarli ekanligini, yana biri esa faqat asosiy ehtiyojlar uchun yetarli ekanligini bildirgan, qolgan ikkitasi esa daromadlari hatto oziq-ovqat sotib olish uchun ham yetarli emasligini ta'kidlagan.

*21-jadval. Cho'pon LTOUXlarning daromadlari*

Ish haqi		Chorvachilikdan tushum		Ijtimoiy yordam	Pensiya	Nogironlik nafaqasi	Boshqa daromad	Jami daromad	Daromad bahosi
H01	[REDACTED]	[REDACTED]		[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
H02	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
H03	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
H04	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]

Eslatma: M/B=Ma'lumot berilmagan

*22-jadval. Cho'pon LTOUXlarning xarajatlari*

Davlat kommunal xizmatlari uchun to'lov	Oziq-ovqat xarajatlari	Ta'lim xarajatlari	Tibbiy davolanish xarajatlari	Nogironligi bo'lgan a'zolarni davolash xarajatlari	Kredit to'ovi	Transport xarajatlari	Boshqa xarajatlar	Jami xarajatlar	Xarajatlar daromaddan oshib ketganmi?
H01	[REDACTED]		[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
H02	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
H03	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]
H04	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]	[REDACTED]

## 4.9 Turar joy va yashash sharoitlari

Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovda ishtirok etgan TH respondentlarining barchasi xususiy uyda yashashini bildirgan, ya'ni hech kim ko'p qavatli uyda yashamaydi. Jami respondentlarning 99,4% o'z uyiga egalik qiladi, 0,3% ish joyi tomonidan ajratilgan uylarda yashaydi, yana 0,3% ijara olingan uyda yashaydi. Ko'pchilik, ya'ni 84,3% uylarga oilaning erkak a'zosi egalik qiladi va faqat 15,7% uylar ayol a'zolarning nomiga rasmiylashtirilgan (odatda, ular uy xo'jaligi rahbari bo'ladi).

Aholini ro'yxatga olish so'rvnomasida ishtirok etgan loyiha ta'siri ostidagi fermer xo'jaliklari egalari (barchasi) o'z uyiga egalik qiladi. Fermer F04 uyining mulkdori sifatida ayol uy xo'jaligi rahbarining o'g'li ko'rsatilgan.

Ishchilar va cho'ponlar orasida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish so'rovida ishtirok etganlardan biri (W12) uyi oilaning ayol a'zosiga tegishli ekanligini bildirgan, qolganlari esa erkak oilaviy a'zolariga tegishli uyda yashaydi. Jami 22 nafar ishchi va cho'pon (13 ta doimiy ishchi, 5 ta mavsumiy ishchi va 4 ta cho'pon) o'zining xususiy uyida yashaydi.

<b>Jami</b>	[REDACTED]				

Izoh: So'mni - AQSh dollariga ayirboshlash kursi 2025-yil iyul oyida 12,650 UZS = 1 USD deb hisoblangan.

## 12.2 TTTR uchun kutilmagan xarajatlar jamg'armasi

Loyiha xarajatlariga 10% zaxira (kontingent) qo'shilgan bo'lib, bu kutilmagan qo'shimcha xarajatlar — masalan, qo'shimcha LTOShlarning aniqlanishi yoki xarajatlarning oshib ketishi kabi holatlar uchun mo'ljallangan. Mazkur zaxira F02 fermeri uchun qo'shimcha ishchilar aniqlansa, barcha ChIUXlar (chorva ijarachilari) ta'sirga uchragan deb topilsa, barcha ishchilar ish joyini yo'qotsa yoki barcha kreditlar qaytarilmay qolsa, yuzaga keladigan xarajatlarni qoplash uchun yetarli deb hisoblanadi.

## 13 Institutsional tashkilotlar

Ushbu bo'limda TTTRni amalga oshirish, jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar, axborotni oshkor qilish, shikoyatlarni hal qilish, monitoring va habar berish bo'yicha institutsional tashkilotlar va ularning vazifalari haqida umumiy ma'lumot beriladi.

### 13.1 Asosiy javobgar tomonlar

#### 13.1.1 Juru

"Juru" TTTRni (ushbu hujjat) tayyorlash va "Masdar" nomidan LTOSHLar bilan kompensatsiya bo'yicha muzokaralar olib borish uchun javobgar bo'ladi. "Juru"ning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- hozirgi vaziyatni baholash;
- LTOSHLarni aniqlash;
- yerni olib Qo'yish va kompensatsiya jarayoni bo'yicha qonuniy asoslarni belgilash;
- TTTR davomida maslahat qilinishi kerak bo'lgan asosiy manfaatdor tomonlarni aniqlash;
- manfaatdor tomonlar bilan TTTR bo'yicha maslahatlashuvlarni o'tkazish;
- LTOSHLar bilan kompensatsiya bo'yicha muzokaralarga ko'maklashish; va
- TTTRni tayyorlash jarayonida ShHMga yordam berish.

#### 13.1.2 Masdar/Loyiha kompaniyasi

"Masdar" TTTR va kompensatsiya to'lovlarini tasdiqlash uchun javobgar bo'ladi. "Masdar" ning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- kompensatsiya paketlarini, shuningdek, LTOSHLar va ularning uy xo'jaliklari uchun qo'shimcha yordam va tirikchilik manbalarini tiklash dasturlarini tayyorlash/tasdiqlash;
- yakuniy huquqlar va kompensatsiya paketlarini barcha LTOSHLarga oshkor qilish;
- "Masdar" veb-saytida TTTRni oshkor qilish;
- kompensatsiya paketlari bo'yicha olingan izohlarni ko'rib chiqish va EITB maslahatchisiga yordam berish;

- TTTRni amalga oshirish bo'yicha tadbirdarda yordam berish va ishtirok etish;
- TTTRni amalga oshirish va monitoringini kuzatish va boshqarish (yoki bu vazifani bajarish uchun pudratchini yollash);
- tirikchilik manbalarini tiklash dasturlari amalga oshirilishini va treninglar olib borilishini ta'minlash;
- kompensatsiya to'lanmagunicha qurilish boshlanmasligini ta'minlash; va
- TTTR bilan bog'liq shikoyatlarni nazorat qilish va ularni ko'rib chiqish.

### **13.1.2.1 "Masdar" ning ijtimoiy masalalar bo'yicha menejer,**

Masdar EITB bosqichi yakunlangach, yashash vositalarini tiklash faoliyatlarini boshqarish uchun ijtimoiy menejerni tayinlaydi. Ushbu ijtimoiy menejer TTTRning amalga oshirilishini boshqaradi va LTOShlar uchun asosiy aloqa shaxsi bo'ladi. Ijtimoiy menejerning vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Kompensatsiya jarayonining kunlik amalga oshirilishini umumiyl boshqarish. JABM va shikoyatlar bo'yicha menejer faoliyatini nazorat qilish.
- TTTR amalga oshirilishiga oid monitoring va baholash ma'lumotlarini to'plash hamda Masdar bilan ulashish.
- Loyiha monitoringi davomida aniqlangan ma'lumotlarga asoslanib, TTTRga kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar zaruratini aniqlash.
- TTTR doirasidagi vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv dasturlarini aniqlash va ushbu o'quvlarni tashkil qilish.

### **13.1.2.2 Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassisи**

Masdar EITB bosqichi yakunlangach, manfaatdor tomonlar bilan muloqot faoliyatlarini amalga oshirish uchun JABMni tayinlaydi. JABM loyiha va mahalliy aholi o'rtasidagi asosiy aloqa nuqtasi bo'ladi. Shuningdek, u shikoyatlarni yakuniy hal etish uchun mas'ul bo'ladi. JABMning vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Kompensatsiya jarayonini boshqarish, jumladan to'lovlarni amalga oshirish.
- LTOShlarni yaqinlashib kelayotgan faoliyatlar, yig'ilishlar va o'quv mashg'ulotlari haqida xabardor qilish.
- Manfaatdor tomonlar bilan muloqot rejasini va bazasini yuritish, yig'ilish bayonnomalarini saqlash hamda barcha maxfiy ma'lumotlarni arxivlash.
- TTTR doirasida zarur bo'lganda posterlar, press-relizlar, ommaviy axborot nashrlari va boshqa tashqi axborot vositalarini tayyorlash.
- Loyihaning shikoyatlar mexanizmini boshqarish, murojaatchiga dastlabki javobni taqdim etish va butun jarayon davomida u bilan aloqani saqlab turish.
- Shikoyatlarni qabul qilish va rasmiylashtirish hamda shikoyatlar bo'yicha hisobotlar tayyorlash.

### 13.1.3 Bosh pudratchi/EPC pudratchisi

Loyiha uchun bosh pudratchi hali aniqlanmagan. U Loyihaning qurilish ishlarini bajarish uchun "Masdar" tomonidan jalb qilinadi. Bosh pudratchining TTTR bo'yicha vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kutilmoqda:

- Qurilish boshlanishidan oldin zarur kompensatsiya to'langanligini ta'minlash;
- TTTRga bo'lgan ehtiyoj va amalga oshirish talablarini tushunish; va
- TTTR bilan bog'liq har qanday shikoyatlarni Loyiha kompaniyasiga yuborish.

### 13.1.4 O'zMET

O'zMET HEUT (yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmog'i) va yer osti kabeli qurib bo'linganidan so'ng ular uchun mas'ul bo'ladi. Shuning uchun, HEUT bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish ishlari natijasida yer, ekin yoki mulkka yetkazilgan har qanday ta'sir uchun mas'uliyat O'zMET zimmasiga yuklanadi<sup>65</sup>.

O'zMET HEUTning ekspluatatsiya davridagi har qanday ta'siri uchun 8-bo'limda keltirilgan Huquqiy Talablar Matritsasi asosida kompensatsiya to'lashi lozim bo'ladi.

### 13.1.5 Kreditorlarning vazifalari

Kreditorlarning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kutilmoqda:

- TTTRni ko'rib chiqish va tasdiqlash (TTTR amalga oshirilishidan oldin kreditorlar tarkibida bo'lsa);
- Kreditorning veb-saytida TTTRning qisqa bayoni va/yoki to'liq TTTRni oshkor qilish; va
- TTTRning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishini nazorat qilish yoki o'z tashkiloti talablariga muvofiq TTTR qanday amalga oshirilganligini mustaqil auditdan o'tkazish.

### 13.1.6 ENERGETIKA VAZIRLIGI

Loyiha uchun ijara beriladigan yer uchastkasining yakuniy yer egasi bo'lgan ushbu davlat organining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- IJSRQdan yarlarni Energetika vazirligiga qayta ajratish bo'yicha ichki jarayonlarni amalga oshirish;
- "Masdar" bilan yerni ijara berish shartnomasini imzolash; va

<sup>65</sup> Yer osti kabeli o'tkaziladigan yer to'liq IjRoSQ (SWID) mulkida hisoblanadi, HEUT ostidagi yer esa juda kichik maydonni egallaydi. Shuning uchun, bunday ta'sirlar yuz berish xavfi past deb baholanadi.

- Loyihani qurish va yerni olib Qo'yishning ta'sir darajasini baholash uchun zarur bo'lganda Vazirlik va unga bo'ysunuvchi tuzilmalar faoliyati to'g'risida ma'lumot berishda "Masdar"ga ko'maklashish.

### **13.1.7 Iplakchilik va jun sanoatini rivojlantirish davlat qo'mitasi**

Asosiy yer egasi va yaylov yerlarini o'ziga bo'ysunuvchi tashkilotlarga ajratuvchi davlat organi bo'lgan Davlat qo'mitasi o'z zimmasiga oladi:

- IJSRQdan yerlarni Energetika vazirligiga qayta ajratish bo'yicha ichki jarayonlarni amalga oshirish; va
- Loyihani qurish va yerni olib Qo'yishning ta'sir darajasini baholash uchun zarur bo'lganda Qo'mita va unga bo'ysunuvchi tuzilmalar faoliyati to'g'risida ma'lumot berishda "Masdar"ga ko'maklashish.

### **QASHQADARYO VILOYATI HOKIMIYATI**

Qashqadaryo viloyati hokimligi tanlab olingan yer uchastkalarining chegaralariga tuzatishlar kiritib, Qishloq va o'rmon xo'jaligi yerkari fondidagi yer toifalarini o'zgartirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Hukumat komissiyasiga tegishli taklif kiritadi. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- "Masdar" tomonidan taqdim etilgan Loyiha hujjatlari asosida tanlab olingan yer uchastkalarini Energetika vazirligiga doimiy foydalanish uchun ajratib berish;
- Energetika vazirligi yuqorida qayd etilgan yer uchastkalarini "Masdar"ga Loyihani amalga oshirish muddatiga teng muddatga ijara berishini ta'minlasin.
- "Masdar" tomonidan to'lanadigan yer uchastkalari uchun ijara to'lovini yer solig'i summasiga tenglashtirish.

### **13.1.8 TTTR qo'mitasi**

TTTR Qo'mitasi loyihaning EITB bosqichi yakunlangach, ijtimoiy menejer yoki JABM tomonidan chaqiriladi. Ushbu qo'mita quyidagi a'zolardan iborat bo'ladi:

- Ijtimoiy menejer
- JABM
- Loyiha maydonining menejeri (zarur bo'lsa)
- Mahalliy mahalla raisi (yoki raislari)
- Mahalliy mahallaning erkak va ayol vakillari
- LTOSHLarning erkak va ayol vakillari
- Mos hollarda, mahalliy hokimiyat vakillari

TTTR Qo'mitasining mas'uliyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- TTTRning amalga oshirilishini nazorat qilish hamda kompensatsiya va yashash vositalarini tiklash bo'yicha yordam ko'rsatish.

- TTTR monitoringi bo'yicha hisobotlarni ko'rib chiqish va ichki va tashqi monitoring hamda baholash ko'rsatkichlari orqali amalga oshirish jarayonining holatini tahlil qilish. Bu ko'rib chiqishning maqsadi – faoliyat samaradorligini uzlusiz yaxshilash va muammolarning qayta yuzaga kelishini oldini olish.
- TTTR bo'yicha yakuniy audit qachon o'tkazilishi kerakligini belgilash.
- Kelgusidagi moliyaviy auditlar uchun asos yaratish maqsadida barcha xarajatlarning to'liq hisob-kitob qilinganini tasdiqlash.
- Zarur hollarda shikoyatlarni hal qilish jarayonida ishtirok etish.
- Shikoyatlar mexanizmining samaradorligini monitoring qilish.

TTTR Qo'mitasi, shuningdek, qurilish bosqichida ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan, lekin TTTR byudjetiga kirmaydigan, jamoa rivojlanish rejasiga kiritilgan faoliyatlar uchun ham mas'ul bo'ladi.

Qo'mita TTTR amalga oshirilayotgan davr mobaynida har chorakda yig'ilish o'tkazadi. Yashash vositalarini tiklash tashabbuslari to'liq amalga oshirilgach va barcha kompensatsiyalar to'langanidan so'ng, Qo'mita har olti oyda yig'iladi. TTTR Yakuniy Audit o'tkazilgach, Qo'mita tarqatiladi.

Ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash maqsadida, TTTR Qo'mitasi a'zolari LTOShlarga oid shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqini olishdan avval maxfiylik to'grisidagi kelishuvga imzo chekishlari lozim. Bu hujjat ularning eng qulay tilida taqdim etiladi va har bir a'zoga nusxasi topshiriladi.

### **13.1.9 Shikoyatlarni ko'rib chiqish qo'mitasi**

Shikoyatlarni Ko'rib Chiqish Qo'mitasi (ShKChQ) loyihaning bosqichi yakunlangach, ijtimoiy menejer yoki JABM tomonidan chaqiriladi. Ushbu qo'mita yashash vositalarini tiklash uchun mas'ul asosiy subyektlar vakillari, mahalliy hamjamiyat a'zolari hamda LTOSh vakillaridan tashkil topadi (batafsil ma'lumot uchun qarang 12.4-bo'lim).

ShKChQning asosiy vazifasi:

- Apellyatsiya tartibida ko'rib chiqilgan barcha shikoyatlarni ko'rib chiqish va hal etish.

Agar biron-bir shikoyat loyiha darajasida hal etilmasa yoki murojaatchi taqdim etilgan javobdan qoniqmasa, ShKChQ ushbu masalani ko'rib chiqish uchun chaqiriladi. Qo'mita tarkibida ayollar, ijtimoiy jihatdan zaif guruylar va barcha jins vakillari teng va munosib tarzda ifodalanadi hamda shikoyatlarni o'rGANADI. Zarur hollarda, qo'mita mahalliy hamjamiyat tashkilotlari bilan hamkorlikda shikoyatlarni hal etish choralarini muvofiqlashtiradi.

### **13.1.10 Mustaqil E-I maslahatchi**

Loyihaning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun mustaqil E-I maslahatchi jalb qilinadi. E-I maslahatchining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- TTRni amalga oshirish jarayonini monitoring qilish va kreditorlarga taqdim etish uchun TTRni amalga oshirish bo'yicha monitoring hisobotlarini tayyorlash;
- "Masdar"ni baholash jarayonida va TTRni amalga oshirish va monitoring qilishda yuzaga keladigan har qanday muammolar haqida xabardor qilish;
- Kreditorlarga taqdim etilgan monitoring hisobotlarida TTRni amalga oshirish jarayonida talablarga riosa qilmaslik holatlari va tuzatish choralarini to'g'risida fikr-mulohazalarni taqdim etish; va
- Kreditorning talablariga muvofiq tuzatish choralarini talab qiladigan masalalar bo'yicha tavsiyalar berish.

### **13.2 Amalga oshirish jadvali**

Amalga oshirish jadvalida tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha barcha asosiy tadbirlarni boshlash va tugatish muddatlari ko'rsatilgan. LXQ pudratchisiga ushbu TTRga muvofiq birinchi kompensatsiya to'llanmagunicha ta'sirga uchragan hududlarda qurilish ishlarini boshlashga ruxsat berilmaydi (tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlar qurilish bosqichida davom ettirilishi mumkin). Tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlarni o'z vaqtida bajarmaslik qurilish ishlarining jadvaliga ta'sir qilish xavfi mavjud.

56-jadval: Joriy Loyihani amalga oshirish jadvali

	Haftalar																																1-52	1-52			
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	25	26	27	28	29	30	31	32	
LTOSHlarga komopensatsiya to'lovlarini ochiqlash va ular bilan paketlarni tasdiqlash/muhokamalar o'tkazish																																					
Turmush Tarzini Tiklash Rejasini tamomlash																																					
YeTTB/XMK/OTB/Masdar tomonidan TTTRni tasdiqlash																																					
TTTRni kreditor va Masdar veb-saytlarida oshkor qilish																																					
TTTR qo'mitasini tashkil etish va tayyorlash																																					
TTTRni amalga oshirish davrida choraklik TTTR qo'mitasining yig'ilishlarini o'tkazish.																																					
TTTR qo'mitasi yig'ilishlari - yiliga ikki marta ,Audit yakunlangunga qadar																																					
Huquqlarni ta'minlash (urug'lar va asboblar)																																					
Kompensatsiyaning birinchi to'lovi																																					
Kompensatsiyaning ikkinchi to'lovi																																					
Kompensatsiyaning uchinchchi to'lovi																																					
Mavjud yer auksoni portalidan foydalanishda ko'mak																																					
Biznesni rejalashtirish va kredit olishda ko'mak (o'z biznes faoliyatini boshlayotgan LTOSHLar uchun)																																					
Agronomni ishga jalb qilish																																					
Yer unumdorligini oshirish choralarini tasdiqlash uchun o'tkaziladigan tadqiqot																																					
Agrovoltika sohasidagi mutaxassisni ishga jalb qilish																																					
Nazorat ostida amalga oshiriladigan yaylov faoliyatlari bo'yicha standart operatsion tartib (SOP) va protseduralarni ishlab chiqish																																					
Nazorat ostida yaylovdan foydalanish jarayoni boshlanishi																																					
TTTR doirasidagi o'quv jadvali ishlab chiqildi																																					
LTOSHLar uchun o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi																																					
Zaif toifadagi LTOSHarga bandlikni ta'minlash maqsadida rezyume va boshqa zarur hujjatlarni tayyorlashda ko'mak ko'rsatish																																					
LTOSHLar uchun bandlik imkoniyatlarini e'lon qilish maqsadida Telegram kanalini tashkil etish va amalga oshirish																																					
Ichki monitoringni choraklik asosda o'tkazish																																					
Batafsil loyihalashning yakunlanishi																																					
Tasir ostidagi yerlarning chegaralarini aniqlash																																					
Moliyaviy yopilish																																					
Ichki muvofiqlik bo'yicha hisobot																																					
Qurilishi ishlarining boshlanishi																																					
Ichki audit																																					
Auditni yakunlash																																					

## 14 Monitoring va hisobot berish

### 14.1 Umumiylumot

Monitoring Loyihaga shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi orqali LTOSHLar bilan uzlusiz aloqa o'rnatish, TTTR jarayonini baholash, milliy qonunchilik va Kreditorlarning tirikchilik manbalarini tiklashga oid talablari bo'yicha talab qilinadigan harakatlarning bajarilishini ta'minlash imkonini beradi.

Tirikchilik manbalarini tiklash jarayonining monitoringi "Masdar" (yoki qurilish bosqichidagi faoliyat uchun - Bosh pudratchi) nomidan "Juru" tomonidan olib boriladi. Ushbu TTTR doirasida monitoring va hisobot berishni talab qiladigan turli tadbirlar olib oriladi. Ular keyingi bo'limgarda muhokama qilinadi.

### 14.2 Monitoring

#### 14.2.1 Ichki monitoring

Loyihaning Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejeri va Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis ko'magida maslahatchi TTTRning bajarilishining monitoringini olib oradi. TTTRni amalga oshirish jarayonida birinchi yil davomida har chorakda tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha monitoringi va baholash hisobotlari tayyorlanadi, so'ng amalga oshirilishning boshlanishidan keyin uch yil davomida yarim yillik hisobotlar taqdim etiladi. Kompensatsiyaning birinchi to'lovi to'langanidan so'ng (kutilayotgan sana - 2025 yilning 1-choragi) barcha kompensatsiyalar iqtisodiy ko'chirishdan oldin (qurilish boshlanishida) to'langanligini tasdiqlovchi muvofiqlik hisoboti tayyorlanadi.

TTTRning tegishli tekshirushi jarayonida belgilangan monitoring harakatlari doimiy ravishda amalga oshiriladi va har chorakda tayyorlanadigan monitoring hisobotlarida yoritiladi.

Ichki monitoring tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarining (ASK - 14.4-bo'limga batafsil muhokama qilinadi) holati, maslahatlashuvlar va boshqa tadbirlar natijalari, tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlar samaradorligiga ta'sir etuvchi masalalar, cheklar, TTTR ga kiritilgan o'zgarishlar (agar mavjud bo'lsa), bu o'zgarishlarning sabablari, tuzatuvchi harakatlar (aniqlangan har qanday muammolarni hal qilish uchun) va o'rganilgan saboqlarni kuzatishga qaratiladi. Monitoring jarayoni imkon qadar LTOSHLarga oid mavjud bo'limgan ma'lumotlarni aniqlashga, ilgari qilingan taxminlarni tasdiqlashga va belgilangan kompensatsiya tizimining barqarorligini baholashga qaratiladi.

Agar tirikchilik manbalarini tiklash bilan bog'liq har qanday muhim muammolar yoki kutilmagan ta'sirlar aniqlansa, EITB bo'yicha maslahatchi bunday muammolarni hal qilish uchun tuzatuvchi harakatlar rejasini tayyorlaydi.

## 14.2.2 Tashqi/uchinchi taraf auditi/tugatish auditi

Ichki auditga qo'shimcha ravishda tashqi monitoringni o'tkazish uchun tashqi monitoring agenti (TMA) yoki kreditorlarning ekologik va ijtimoiy muammolarni kompleks tekshiruvi (EIKT) guruhi faoliyat ko'rsatadi. TMA konsalting firmasi, malakali nodavlat tashkiloti (NNT)<sup>66</sup>, yoki boshqa agentlik bo'ladi va EITB maslahatchisidan mustaqil bo'lishi kerak. TMA ning vazifasi ichki monitoring natijalarini tekshirish va TTTR jarayoni kelishilgan TTTRga muvofiq amalga oshirilganligini nazorat qilishdan iborat bo'ladi. TTTRni amalga oshirishning oxirida (2026 yil oxirida kutilayotgan barcha huquqlar taqdim etilganidan so'ng) TMA tugatish auditini o'tkazadi, shu jumladan TTTR maqsadlariga erishilganligini baholaydi. TMA, shuningdek, LTOSHLAR tomonidan bildirilgan har qanday tashvishlar qoniqarli tarzda hal etilishini ta'minlash uchun arzlar va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartib-qoidalarining bajarilishini ko'rib chiqadi. Tashqi monitoring doirasida quyidagilar monitoring qilinadi (lekin ular bilan cheklanmaydi):

a) **Tirikchilik manbalarini tiklash tadbirlarining amalga oshirish holati:**

- Kompensatsiya standartlari va kompensatsiya mablag'larini to'lash;
- Yerdan foydalanish huquqlarini va yerga soliq va ro'yxatga olish majburiyatlarini qayta taqsimlash va tuzatish;
- LTOSHLarning yashash sharoitlari, LTOSHLarning loyihadan oldingi holati bilan solishtirganda, ularning holati yaxshilangan yoki o'zgarmaganligini monitoring qilish. Choralar demografik o'zgarishlarni, sog'liqni saqlashni (kasallanish chastotasi va mavjud tibbiy muassasalarni); ta'lim (tamomlash va savodxonlik darajalari); kambag'alik darajasi; daromad darajasi, kasbhunar va ish bilan ta'minlanish holati; va ijtimoiy ehtiyojmandlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi mumkin (lekin ular bilan cheklanmaydi)
- Qabul qiluvchi joylarning rivojlantirilishi (zarurat bo'lgan hollarda) va LTOSHLarning Loiyhadan oldingi holatga yoki yaxshiroq darajada turmush sharoiti tiklanishini ta'minlash;
- Shikoyatlar soni va ularni hal qilish;
- Maslahatlashuvlar;
- EITB bo'yicha maslahatchiga TTTRni amalga oshirishda darhol e'tibor berishni talab qiladigan har qanday masalalar bo'yicha tavsiyalar;
- O'rganilgan saboqlar;

<sup>66</sup> Izoh: Ushbu viloyatda faoliyat yuritayotgan hech qanday NNT aniqlanmagan. Shuning uchun, NTT tanlanishi ehtimoli kam. Bu faqatgina NNT boshqa viloyatdan kelgan yoki ushbu viloyatga ko'chib kelgan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

- b) **Qo'shimcha LTOShlarni uch oylik va yarim yillik monitoringi:** TTTRda ko'rsatilmagan qo'shimcha ko'chirilgan shaxslarni aniqlash bo'yicha hisobot berish.
- c) **Institutsional baholash:** TTTR amalga oshirilganidan bir yil o'tgach, TTTRni amalga oshirishda ishtirok etgan institutsional tashkilotlar baholanadi va bu haqda hisobot taqdim etiladi.
- d) **Amalga oshirishdan keying baholash:** Qurilish ishlarini tugatilganidan so'ng ikki yildan keyin, LHSchlarning yashash sharoitlari loyihadan oldingi holatiga qaraganda yaxshilanganligi yoki o'zgarmaganligini aniqlash uchun tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlarning samaradorligi baholanadi.
- e) **O'rganilgan saboqlar:** Kelajakda tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

#### **14.3 Tirikchilik manbalarini tiklash to'g'risida hisobot**

TTTR EITB hujjatlarining bir qismi sifatida oshkor qilinadi. TTTR ni tayyorlashdan so'ng, tirikchilik manbalarini tiklash tadbirlarini amalga oshirishning holatini oshkor qilish uchun TTTRni amalga oshirish davomida muntazam ravishda har chorakda ichki hisobot tayyorlanadi. Asosiy ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

- manfaatdor tomonlar va LTOSHLar bilan maslahatlashuvlar. Maslahatlashuvlar natijalari (javob xatlari, Yig'ilish bayonnamalari va boshqalar);
- to'langan kompensatsiya;
- amalga oshirigan tirikchilik vositalarini tiklash bo'yicha tadbirlar;
- qabul qilingan shikoyatlar.

57-jadvalda TTTRni amalga oshirish jarayonida talab qilinadigan hisobot turlari to'g'risida umumiy ma'lumot berilgan.

*57-jadval: Hisobot talablari*

<b>Hisobot turi</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Chastotasi</b>	<b>Javobgar</b>	<b>Qabul qiluvchi</b>
<b>Choraklik Yozma Hisobotlar</b>	Turmush tarzini tiklash faoliyatlari bo'yicha ilgari surilgan rivojlanish, asosiy ishslash ko'satkichlari bo'yicha erishilgan natijalar, faoliyat samaradorligiga ta'sir etayotgan muammolar, cheklovlar, TTRdan chetlatilish (agar mavjud bo'lsa), chetlatish sabablari, to'g'rilash choralar va olingan saboqlar.	Choraklik	Masdar Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejeri/JABM	Masdar
<b>Muvofiqlik Hisoboti</b>	Barcha kompensatsiyalarning TTRga muvofiq to'langanini tasdiqlash, bu esa asl ko'chirish boshlanmasdan va EPC pudratchisiga qurilish ishlarini boshlash uchun ruxsat berishdan oldin amalga oshirilishi kerak.	Birinchi kompensatsiya to'loving to'liq amalga oshirilgandan so'ng.	Masdar Ijtimoiy masalalar bo'yicha menejeri	Masdar va Kreditorlar
<b>O'rta Audit</b>	TTTRning maqsadlariga erishilayotganini tekshirish va agar kerak bo'lsa, taklif etilgan yashash vositalarini tiklash dasturlarini qayta kalibrlash zarurligini aniqlash.	Turmush tarzini tiklash faoliyatlari o'rtasida, ya'ni o'rta bosqichda.	Tashqi maslahatchi	Masdar va Kreditorlar

Hisobot turi	Mazmuni	Chastotasi	Javobgar	Qabul qiluvchi
<b>Tugatish auditи</b>	Turmush tarzini tiklash jarayonining umumiyl tavsifi, ASKLarning natijalari va o'lchovlari, asosiy o'zgarishlar, va o'rgangan saboqlar.	Bir marotaba, TTTR to'lovlari va turmush tarzini tiklash bo'yicha tadbirlar tugaganidan so'ng.	Mustaqil maslahatchi	Masdar va Kreditorlar

#### 14.4 Ko'rsatkichlar / ASKlar

Loyiha 58-jadvaldagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan (ASK) doimiy ravishda tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlarini kuzatish uchun foydalanadi.

*58-jadval: ASK va tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha maqsadlar*

<b>ASK kodi</b>	<b>ASK</b>	<b>Maqsadli ko'rsatkich</b>	<b>Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi</b>	<b>Monitoring chorasi</b>	<b>Javobgar<sup>67</sup></b>
TTTR-01	Malaka oshirish tadbirlari va o'quv kurslari belgilangan muddatlarda yakunlandi.	Rejalahtirilgan malaka oshirish kurslarining hammasi o'tkazildi. Kurslarda qatnashganlarning 50% ayollardir.	Har chorakda	O'quv kurslarining jurnali/fotosuratlar/davomat varaqalari/trening baholash formasi.	"Masdar"
TTTR-02	Tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlar kelishilgan amalga oshirish rejasiga muvofiq amalga oshirilmogda.	Tadbirlarning kamida 80 foizi jadval asosida amalga oshirildi	Har chorakda	Yangilangan amalga oshirish jadvali	"Masdar"
TTTR-03	Mablag'lar TTTR bo'yicha ajratilgan	Mablag'larning 100% o'zlashtirildi	Har yili	To'lov jadvallari/to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar	"Masdar"
TTTR-04	Barcha LTOShlar huquqlar	100% LTOShlar huquqlarni oldi.	Har chorakda	To'lov jadvallari/to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar	"Masdar"

<sup>67</sup>Izoh: sanab o'tilgan ba'zi bandlarga hozirda "Juru" javobgar bo'lib, ular Loyiha rivojlangan sari o'zgaradi va javobgarlik "Masdar", Bosh pudratchi yoki maslahatchiga o'tadi. Ushbu o'zgarishlar ushbu hisobotning keyingi versiyalarida aks ettiriladi.

ASK kodi	ASK	Maqsadli ko'rsatkich	Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi	Monitoring chorasi	Javobgar <sup>67</sup>
	matritsasidagi zaralarning soni va toifalari bo'yicha huquqlarni oldilar				
TTTR-05	Fermerlarning aytishicha, ularning qolgan yerlarining unumdorligi oshdi	Fermerlarning 100% yerlarining unumdorligi oshdi, deb javob berishdi	Har chorakda	Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnama natijalari/uchrashuv bayonnomalari/fotosuratlar/davomat varaqlari/baholovchi tomonidan baholash	"Masdar"/Baholovchi
TTTR-06	Ishchilar ish bilan ta'minlangan	Ishchilarning 100% ish bilan ta'minlangan	Har chorakda	Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnama natijalari/uchrashuv bayonnomalari/fotosuratlar/davomat varaqlari	"Masdar"
TTTR-07	Cho'ponlar o'tlatishi mumkin bo'lgan mollarning soni o'zgarmagan yoki oshgan	Cho'ponlar o'tlatishi mumkin bo'lgan mollarning soni o'zgarmagan	Har chorakda	Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnama natijalari/uchrashuv bayonnomalari/fotosuratlar/davomat varaqlari	"Masdar"
TTTR-08	O'z tirikchilik manbalarini o'zgartirgan LTOSHLAR (ya'ni, F04)	Tirikchilik manbalari o'zgartirilgan barcha LTOSHLAR barqaror	Har 6 oy	Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnama natijalari/uchrashuv bayonnomalari/fotosuratlar/davomat varaqlari	"Masdar"

<b>ASK kodi</b>	<b>ASK</b>	<b>Maqsadli ko'rsatkich</b>	<b>Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi</b>	<b>Monitoring chorasi</b>	<b>Javobgar<sup>67</sup></b>
	barqaror muqobil tirikchilik manbalariga ega	tirikchilik manbalariga ega			
TTTR-09	Tirikchilik manbalarini tiklash bo'yicha tadbirlarda ishtirokchilar soni	Muvofiq LTOSharning kamida 70% tadbirlarda qatnashdi. Ularning kamida yarmi ayollardir.	Har chorakda	Trening jurnallari/fotosuratlar/ davomat varaqlari	"Masdar"
TTTR-10	ShHMdan qanday foydalanishni biladigan LTOShlar soni	Barcha LTOShlar ShHMdan qanday foydalanishni bilishlarini aytishdi.	Har 6 oy	Uchrashuvlar bayonnomalari	"Juru"/"Masdar"
TTTR-11	Qoniqarli hal etilgan shikoyatlar soni	100% shikoyatlar ShHMda belgilangan muddatlarda hal qilindi.	Har chorakda	Shikoyatlar jurnalni	"Juru"/"Masdar"
TTTR-12	Shikoyatlar va ularni hal qilish jarayonlari hujjatlashtirilgan	100% shikoyatlar hujjatlashtirilgan	Har chorakda	Shikoyatlar jurnalni	"Juru"/"Masdar"
TTTR-13	Sudga topshirilgan ishlар soni	Birorta ish sudga topshirilmadi.	Har 6 oy	Huquqiy hujjatlar qabul qilindi	"Juru"/"Masdar"

ASK kodi	ASK	Maqsadli ko'rsatkich	Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi	Monitoring chorasi	Javobgar <sup>67</sup>
TTTR-14	Barcha jarayonlar hujjatlashtirildi	100% jarayonlar hujjatlashtirildi.	Har chorakda	TTTR hujjatlari	"Juru"/"Masdar"/Bosh Pudratchi
TTTR-15	Shikoyatlarning qoniqarli hal qilingan soni	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmida belgilangan muddat ichida barcha shikoyatlarning 100% hal qilinishi.	Har chorakda	Shikoyatlar reyestri	Juru/Masdar
TTTR-16	Shikoyatlar va ularning yechimlari hujjatlashtirilgan	100% shikoyatlar hujjatlashtirilgan	Har chorakda	Shikoyatlar reyestri	Juru/Masdar
TTTR-17	Sudga olib chiqilgan ishlar soni	Sudga olib chiqilgan ishlar yo'q	Har 6 oyda	Qabul qilingan huquqiy hujjatlar	Juru/Masdar
TTTR-18	Barcha jarayonlar hujjatlashtirilgan	100% jarayonlar hujjatlashtirilgan	Har chorakda	TTTR hujjatlashtirilishi	Juru/Masdar
TTTR-19	Saytdan tashqarida yig'ish uchun yetarli miqdorda o'tlar va go'ng mavjud	Mahalla vakillari giyoh va go'ngning yetarli darajada mavjudligini tasdiqlamoqda Giyoh yoki go'ng yig'ish bilan bog'liq	Har 6 oyda	Yig'ilishlar bayonnomasi Shikoyatlar reyestri	Juru/Masdar

ASK kodi	ASK	Maqsadli ko'rsatkich	Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi	Monitoring chorasi	Javobgar <sup>67</sup>
		hech qanday shikoyat olinmadи			
TTTR-20	ChIUXlar Loyihadan salbiy ta'sir ko'rmaydi	Barcha ChIUX tomonidan egalik qilinayotgan hayvonlar (loyihaga yaqin yoki loyiha hududida) boqilmoqda. So'rovlar shuni ko'rsatadiki, ChIUX o'zlarining hayvonlar sonini kamaytirishga majbur bo'limgan. ChIUX tomonidan ko'tarilgan da'volar soni va to'langan kompensatsiya miqdori.	Har chorakda	Ijtimoiy-iqtisodiy so'rov natijalari, uchrashuv bayonnomalari / suratlar / qatnashuv varaqalari / to'lov jadvali.	Masdar
TTTR-21	TTTR amalga oshirilishi doirasida LTOSh bilan	Maslahatlashuvlar yakuniy auditgacha	Har chorakda	Yig'ilishlar bayonnomasi, ishtirokchilar ro'yxati, rasmlar	Juru/Masdar

<b>ASK kodi</b>	<b>ASK</b>	<b>Maqsadli ko'rsatkich</b>	<b>Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi</b>	<b>Monitoring chorasi</b>	<b>Javobgar<sup>67</sup></b>
	o'tkazilgan maslahatlashuvlar soni	har oyda kamida bir marta o'tkaziladi.			
TTTR-22	Ayollar TTTR bo'yicha maslahatlashuvlarda ishtirok etadi.	Har bir LTOSh uchun kamida bitta ayol oila a'zosi TTTR maslahatlashuvlarda ishtirok etgan bo'lishi kerak.	Harchorakda	Yig'ilishlar bayonnomasi, ishtirokchilar ro'yxati, rasmlar	Juru/Masdar
TTTR-23	Zaif toifadagi xonadonlarning daromadi yaxshilandi.	Zaif toifadagi xonadonlarning 100% daromadi yaxshilandi.	Har chorakda	So'rovnama natijalari, uchrashuv bayonnomalari, zaif LTOSh bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar.	Masdar
TTTR-24	Zaif toifadagi xonadonlarga qo'shimcha yordam ko'rsatilgan.	Zaif toifadagi LTOShning 100% qo'shimcha yordam olgan (Rezyume yozish va h.k., Huquqlar Matritsasiga muvofiq).	Harchorakda	Uchrashuv bayonnomalari, manfaatdor tomonlar bilan ishlash jurnal(lar)i, suratlar.	Masdar

ASK kodi	ASK	Maqsadli ko'rsatkich	Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi	Monitoring chorasi	Javobgar <sup>67</sup>
TTTR-25	Monitoring hisobotlari tayyorlangan	TTTRda nazarda tutilgan hisobotlarning 100% bajarilgan	Yillik	Monitoring hisobotlari	Masdar
TTTR-26	Kreditga ega bo'lgan barcha LTOShga qo'shimcha yordam ko'rsatilgan	Kreditga ega bo'lgan LTOShning 100% monitoringdan o'tkazilgan va ularga qo'shimcha yordam kerakmi yo'qmi tekshirilgan. Qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan LTOShning 100% bunday yordamni olgan.	Har chorakda	Monitoring hisobotlari, to'lov jadvali / to'lov dalillari	Masdar
TTTR-27	Hech bir LTOSh Kadastr boshqarmasida ijara shartnomasini yangilash uchun to'lov qilmaganini bildirgan	LTOSh larning 100% ijara shartnomasini yangilash uchun to'lov qilmaganini bildirgan	Ijara o'zgarishidan so'ng bir martalik	So'rov nomalarini, uchrashuv bayonnomalari, zaif LTOSh bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar	Masdar

<b>ASK kodi</b>	<b>ASK</b>	<b>Maqsadli ko'rsatkich</b>	<b>Ma'lumotlarni yig'ish chastotasi</b>	<b>Monitoring chorasi</b>	<b>Javobgar<sup>67</sup></b>
		Yerni qisqarishi tufayli ijara shartnomalari o'zgartirilgan			

## 14.5 TTTRni yangilash

TTTR yangilanib turadigan hujjat bo'lib, unga maslahatlashuvlar va kompensatsiyalarni oshkor qilish bo'yicha tadbirlar yakunlanganidan keyin, bu haqda tegishli ma'lumotlar kiritiladi. TTTRga kiritilgan har qanday yangi ma'lumotlar ta'sirga uchragan mahallalarga oshkor qilinishi kerak. Kompensatsiya paketlari oshkor qilinganidan so'ng, "Juru" TTTR bo'yicha vazifalarini "Masdar"ga topshiradi va bundan buyon "Masdar" TTTRning keyingi yangilanishlari uchun javobgar bo'ladi.

Agar loyiha komponentlari va faoliyatları natijasida qo'shimcha yer maydonlari olinishi jismoniy va iqtisodiy ko'chishga olib kelsa, TTTR yangilanadi va ta'sirga uchragan shaxslar TTTRning kompensatsiya matriksasi asosida tovon puli bilan ta'minlanadi. Har qanday potentsial yoki haqiqiy kutilmagan ta'sirlar aniqlangan taqdirda, TTTRga qo'shimcha tuziladi va kreditorlarga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Ushbu qo'shimcha iloji bo'lsa, ta'sirlar yuzaga kelishidan oldin yoki ta'sirlar aniqlanganidan keyin imkon qadar tezroq tayyorlanadi. LTOShlarga TTTR ning huquqlar matriksasiga qarab kompensatsiya ajratiladi.

## A-ilovasi: Shikoyat murojaatnomasi shakli

a) Ingliz tilida

<b><u>NUR-KASHKADARYA SOLAR PV GRIEVANCE FORM</u></b>	
Reference number	(To be filled in by JURU representative) REF:
INSTRUCTIONS	Please fill in this Grievance form in clear handwriting and submit through one of the following means: <ul style="list-style-type: none"><li>- Directly to Juru</li><li>- By email to: <a href="mailto:z.gafurova@juru.org">z.gafurova@juru.org</a> <a href="mailto:o.khegay@juru.org">o.khegay@juru.org</a></li></ul> Phone Number: +998 90 935 74 48 +998 90 941 43 71
Full Name (Optional)	First Name:
	Last Name:
	<input type="checkbox"/> I wish to raise my grievance anonymously ( <i>You can remain anonymous if you prefer but we may not be able to contact you with a response to your concern</i> )
	<input type="checkbox"/> I wish to raise my grievance confidentially ( <i>You can remain confidential in all reporting if you prefer</i> )
Contact Information Please mark how you wish to be contacted (mail, telephone, e-mail).	<input type="checkbox"/> By Post: <i>Please provide:</i> <input type="checkbox"/> By telephone: <i>Please provide:</i> <input type="checkbox"/> By email: <i>Please provide:</i>
	<input type="checkbox"/> Uzbek

Preferred Language of Communication	<input type="checkbox"/> Russian	
	<input type="checkbox"/> Kazakh	
	<input type="checkbox"/> English	
<b>Description of Incident/Grievance</b>  <i>What happened?</i>  <i>Where did it happen?</i>  <i>Who did it happen to?</i>  <i>What is the result of the problem?</i>  <i>Nature of project information requested.</i>		
Date of Incident/Grievance	<input type="checkbox"/> One-time incident/grievance (date...)	
	<input type="checkbox"/> Happened more than once (how many times?)	
	<input type="checkbox"/> On-going (currently experiencing problem)	
What would you like to see happen to resolve the problem?		
Signature:	Date:	

b) O'zbek tilida

<b><u>SHIKOYAT MUROJAATNOMASI SHAKLI</u></b>	
YO'RIQNOMA	<p>Iltimos, ushbu shikoyat murojaati shaklini aniq yozuvda to'ldiring va quyidagi aloqa vositalari orqali taqdim eting:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- To'g'ridan-to'g'ri Juru ga</li><li>- Elektron manzil orqali: <a href="mailto:z.gafurova@juru.org">z.gafurova@juru.org</a> <a href="mailto:o.khegay@juru.org">o.khegay@juru.org</a></li><li>- Telefon orqali: +998 90 935 74 48 +998 90 941 43 71</li></ul>
F.I.Sh (Ixtiyoriy)	<p>Ismi:</p> <p>Familiyasi:</p> <p><input type="checkbox"/> Murojaatimni anonim tarzda bo'lishini istayman. (Hohishingizga ko'ra anonim tarzda murojaat qilishingiz mumkin, ammo u holda masalangiz yuzasidan sizga javob bilan murojaat qila olmaymiz )</p>
Aloqa ma'lumotlari  Murojaatga javob olish shaklini ko'rsating (pochta, telefon, e-mail).	<p><input type="checkbox"/> Pochta orqali: <i>Iltimos, manzilni ko'rsating:</i></p> <p><input type="checkbox"/> Telefon orqali:</p> <p><input type="checkbox"/> E-mail orqali:</p>
Afzal ko'rildigan aloqa tili	<p><input type="checkbox"/> O'zbek</p> <p><input type="checkbox"/> Rus</p> <p><input type="checkbox"/> Qozoq</p> <p><input type="checkbox"/> Ingliz</p>

Murojaat/shikoyat mazmuni	<p><i>Nima sodir bo'ldi?</i></p> <p><i>Qayerda?</i></p> <p><i>Kim buni boshidan o'tkazdi?</i></p> <p><i>Natijada nima sodir bo'ldi?</i></p> <p><i>So'ralgan loyiha ma'lumotining tabiati.</i></p>
Murojaat/shikoyat sanasi	<p><input type="checkbox"/> Bir martalik murojaat/shikoyat (sana _____)</p> <p><input type="checkbox"/> Bir necha marta yuborilgan murojaat/shikoyat (necha marotaba _____)</p> <p><input type="checkbox"/> Davom etayotgan (ayni paytda yechimi topilayotgan murojaat)</p>
Muammoni hal qilish uchun qanday chora-tadbirlar qo'llanishini xohlaysiz?	
Imzo:	
Sana:	

## B-ilovasi: Shikoyat jurnali

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavsifi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
1	09.08.2024	F09	Ma'lumot olish uchun so'rov	So'nggi uch yildagi yomon ob-havo va qurg'oqchilik tufayli, men rejalashtirilgan hosilni terib ola olmadim. Natijada davlatga soliq to'lovlarini to'liq to'lashning iloji bo'lindi. Bu yil fermer xo'jaligimda hosil yetishtirib, bu qarzlarni to'layman deb rejalashtirgan edim, lekin Loyihangiz amalga oshirilayotgani tufayli bu hali	Murodjon Berdimurodov tomonidan 09.08.2024 yilda javob berildi.	Biz hali ham baholash hisob-kitoblari va huquqni tekshirish tugallanishini kutmoqdamiz. Bunga 2 haftadan ko'p vaqt ketmaydi deb o'laymiz. Baholovchidan natjalarni oлganimizdan so'ng, biz variantlarni ko'rib chiqishimiz va muammoingizni to'g'ri hal qilish uchun qaror qabul	Murodjon Berdimurodov tomonidan 23.08.2024 yilda javob berildi.	2 hafta	Ochiq

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavsiyi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
				ham mumkinmi yoki yo'qmi, aniq bila olmayapman. Shu yilning oktyabr-noyabr oylarida bug'doy ekib, may-iyun oylarida yig'ib olsam bo'ladimi? Buning ilojisi bo'lmasa, Loyiha ishlab chiquvchilari qarzimni to'lashda menga yordam bera oladimi?		qilishimiz mumkin bo'ladi. Biz Sizning iltimosingizni katta e'tibor va mas'uliyat bilan ko'rib chiqayotganimi zni bildirmoqchimi z. <sup>68</sup> Ushbu LTOSh bilan huquqlarni kelishish jarayonidagi ilgari surishlar haqida ma'lumot berish uchun kuzatuv telefon qo'ng'iroqlari amalga oshirilgan.			

<sup>68</sup> Eslatma: Loyihadan kelib chiqqan har qanday ekin ekish mavsumi yo'qotilishi TTTRga muvofiq kompensatsiya qilinadi.

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavfsifi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
2	10.01.2025	F04	Ma'lumot olish uchun so'rov	Men ████ █████ boshqaruvchisim an va Batosh mahallasining rahbariman. Ko'plab fermerlardan kompensatsiya sanasi bo'yicha xavotirlar kelyapti. Shuning uchun bu faqat menimcha emas, balki boshqa ta'sir ko'rgan fermerlarning nomidan ham loyiha ishga tushiruvchisidan kompensatsiya to'lanish sanasi aniq qachon bo'lishi haqida rasmiy javob	Mokhinur Zokirova tomonidan telefon orqali 10.01.2025 da javob berilgan.	Bizga murojaat qilganingiz va Batosh mahallasidagi fermerlarning xavotirlarini bildirib o'tganingiz uchun rahmat. Mahalla rahbari sifatidagi faol ishtirokingizni va bu masalada shaffoflik va anqlikni ta'minlashdagi harakatingizni qadrlaymiz. Sizning kompensatsiya sanasi haqidagi so'rovingizga javoban, Juru, loyiha ishga tushiruvchisi nomidan,	Mokhinur Zokirova tomonidan telefon orqali 24.01.2025 da javob berilgan.	2 hafta	Yopiq

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavsifi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
				olishni iltimos qilaman.		kompensatsiya sanasining aniq ma'lum qilinishi loyihaning moliyaviy yakunlanishiga bevosita bog'liq ekanligini ma'lum qildi. Kompensatsiya sanasi kamida 1-2 hafta oldin sizga xabar qilinadi. Fermerlar uchun o'z vaqtida ma'lumot olishning ahamiyatini tan olamiz va yangi yangiliklar paydo bo'lishi bilan sizga yangilanishlarni taqdim etishga			

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavsifi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
						tayyorligimizni ta'kidlaymiz. Agar qo'shimcha savollar yoki xavotirlar bo'lsa, iltimos, biz bilan bog'lanishdan tortinmang.			

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavsiyi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
3	21.01.2025	F07	Ma'lumot olish uchun so'rov	Hukumat mening yer ijariasi shartnomamni bekor qildi, shuning uchun qolgan yerimda ekin ekishimni ta'minlash uchun maydon chegarasi haqida aniq ma'lumot so'rayman. Loyihani amalga oshiruvchi kompaniya saytga texnik guruh yuborib, chegarani belgilab bera oladimi?	Mokhinur Zokirova tomonidan telefon orqali 21.01.2025 da javob berilgan.	Murojaat qilganingiz uchun rahmat. Hozirgi vaqtida loyiha kompaniyasi yerga egalik qilmaydi, shuning uchun aniq chegaralarni tasdiqlay olmaydi. Sizga IJSRQ yoki tegishli mahalliy hokimiyat bilan bog'lanib, qaytarilgan yerlarning aniq chegaralari haqida ma'lumot olishni tavsiya qilamiz. Loyerha kompaniyasi bu	29.01.2025	2 hafta	Yopiq

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavsifi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
					ma'lumotlarga ega emas. Shu bilan birga, kompensatsiya jarayoni yakunlanayotgan vaqtgacha sizga yerda o'z odatiy tarzda ekin ekishni davom ettirishni yoki tegishli organlar bilan muhokama qilganingiz asosida harakat qilishingizni tavsiya qilamiz <sup>69</sup> . Agar qo'shimcha savollar yoki xavotirlar				

<sup>69</sup> Eslatma: Loyihadan kelib chiqqan har qanday ekin mavsumining yo'qolishi TTTRga muvofiq kompensatsiya qilinadi.

Shikoyatning raqami	Shikoyat berilgan sanasi	Shiloya tchinin g to'liq ismi	Shikoyat turi	Shikoyat tavsifi/ariza matni	Qabul qilinganligin ing tasdiqnomasi	Berilgan javob	Javob berilgan sana	Javob berish muddati	Shikoyat holati
						bo'lsa, iltimos, biz bilan bog'lanishdan tortinmang.			

## **C-ilovasi: TTTR ni oshkor qilishga oid dalillar**

## Aholini ro'yxatga olish va mol-mulkni o'rganish bo'yicha so'rovnama

### D-ilovasi: Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovnama

Q1|\_\_\_\_\_|

*so'rovnama raqami*

#### "Nur-Qashqadaryo" Quyosh FE LOYIHASI UCHUN IJTIMOIY-IQTISODIY So'rovnama loyihasi

Assalomu alaykum! Mening ismim \_\_\_\_\_. Biz rejalashtirilgan Nur-Qashqadaryo" Quyosh FE loyihasi uchun Ekologik va Ijtimoiy Ta'sirni Baholash (EITB) doirasida uy xo'jaliklari bilan so'rovnama o'tkazmoqdamiz. Ushbu loyiha O'zbekiston energiya sektorini modernizatsiya qilishga qaratilgan O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan va rejalashtirilgan islohotlarning doirasida amalga oshirilmoqda.

Biz Sizdan mahallalardagi uy xo'jaliklarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini aniqlash maqsadida o'tkazilayotgan so'rovnomada ishtirop etishingizni so'rasmiz. So'rovnomada mahalliy uy xo'jaliklarining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Ushbu ma'lumotlarni yig'ish atrofdagi mahallalar aholisiga va hududlarga loyihaning potentsial ta'sirlarining yuzaga kelishi ehtimolini aniqlashga yordam beradi.

Savollarga javob berishingiz uchun taxminan 40 daqiqa vaqtingiz ketadi. Siz taqdim etgan barcha ma'lumotlar qat'ian maxfiy saqlanadi (O'zbekiston Respublikasi Qonuni №547, 02.07.2019 y.). Bundan tashqari, yig'ilgan ma'lumotlar kodlanib, manzilingiz va shaxsiy ma'lumotlaringiz ko'rsatilmasdan boshqa uy xo'jaliklaridan olingan javoblar bilan birga tahlil qilinadi. EITB taqdim etilgach, biz Sizning ma'lumotlaringizni 5 yil davomida saqlab, so'ngra xavfsiz tarzda yo'q qilamiz. Siz taqdim etgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish va o'zgartirish huquqiga egasiz va uni Siz istagan vaqtda o'chirishni talab qilishingiz mumkin. So'rovnomada ishtirop etish yoki rad etish faqat o'zingizga havola.

## SO'ROVNOMA

### So'rovnomalar pasporti

**Q1. Javob beruvchining to'liq ismi** \_\_\_\_\_

**Q2. Joylashuv**

G'uzor tumani	1
Qamashi tumani	2
Boshqa (Iltimos, ko'rsatib o'ting ) _____	3

**Q3. Mahalla**<sup>70</sup>

**Q4. Aholi punkti/qishloq/mikro tuman**

**Q5. So'rovnomalar o'tkazilgan zona:** \_\_\_\_\_ (masalan, LC1, LC2 va boshqalar)

**Q6. Uy xo'jaligining manzili (ko'cha, uy/kvartira):**

**Q7. Suhbat o'tkazuvchining familiyası va ismi:** \_\_\_\_\_ | \_\_\_\_\_ |

**Q8 So'rovnomalar sanasi:** | \_\_\_\_ | \_\_\_\_ 2023

**Q9. Tekshiruvchi/Kodlovchi** \_\_\_\_\_ | \_\_\_\_ | (to'ldirilmaydi)

**Q10. Operator** \_\_\_\_\_ | \_\_\_\_ | (to'ldirilmaydi)

<sup>70</sup> Mahalla - bu mahalliy o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa.

### **A. UY XO'JALIGI**

Iltimos, oilangiz a'zolari, shu jumladan ushbu turar joyda yashovchilar haqida ma'lumotlarni va oilangizning daromadlari va xarajatlarini ko'rsating.

Tartib raqami	Uy xo'jaligi boshlig'iqa qarindoshligi	Millati	Jinsi	Yoshi	Ma'lumoti	Bandlik (FAQAT 1 JAVOB) O'quvchi/Talaba	Nogironlik holati
	1 - uy xo'jaligi boshlig'i (UXB)	1 - O'zbek	1 - erka k		1 - savodsiz  2 - o'qish va yozishni biladi, lekin umumta'lism asosiy maktabni tamomlamagan	1 - kunduzgi ta'limgagi t alaba (o'rta maktabgacha)	1- Nogiron emas
	2 - UXBning otasi yoki onasi	2 - Markazi y Osiyonin g boshqa xalqlari (qozoq, tojik, turkma n, qirg'iz)	2 - ayol		2 - umumta'lism asosiy maktabni tamomlagan	2 - Kollej, litsey, universitet talabasi va boshqalar	2- Jismoniy nogironlik
	3 - UXBning turmush o'rtog'i yoki sherigi				3 - umumta'lism o'rta maktabni tamomlagan	<b>Ishlash</b> 3 - davlat organlarida ishlaydi	3- Aqliy zaiflik
	4 - UXB ning o'g'li yoki qizi				4 - o'rta maxsus ta'lim (kollej, litsey, kasb-hunar maktabi, texnikumni tamomlagan)	4 - xususiy sektor korxonasida ishlaydi	
	5 - UXBning opasi/singlis i yoki akasi/ukasi yoki opasi/singlis i yoki akasi/ukasin ing turmush o'rtog'i	3 - Osiyonin g boshqa xalqlari			5 - oliy (bakalavr)/aspiran tura (magistratura/fanl ar nomzodi, doktori)	4 - oila a'zosi bo'limgan fermer xo'jaligida ishlaydi	
	6 - boshqa qarindoshi	4 - Slavyan (rus, ukrain, belarus)			6 - bola (hali o'qiyapti)	5- Mavsumiy ishchi, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda ishlaydi	
	7 - qarindosh bo'limgan oila a'zosi	5 - Boshqa (iltimos, ko'rsati b o'ting)				6 - Qishloq xo'jaligi bo'limgan sektorda (masalan, savdo, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish) tadbirkor/biznes egasi (ro'yxatdan o'tgan yoki ro'yxatdan o'tmagan)	
						7 - oilaviy fermer xo'jaligida ishlaydi	
						8 - uy xujaligining yer uchastkasida ishlaydi	
						9 - uy yumushlarini bajaradi	
						<b>Ishlamaydi</b>	

						10 - ro'yxatga olingan nogiron  11 - sog'liq muammolari tufayli  12 - nafaqaxo'r  13 - rasman ishsiz sifatida ro'yxatga olingan  14 - faol ish izlayotgan ishsizlar (mehnat birjasida ro'yxatdan o'tmagan)  15 - ishsiz va ish izlamaydi  16 - boshqa (ko'rsatib o'ting)	
	<b>A1</b>	<b>A2</b>	<b>A3</b>	<b>A4</b>	<b>A5</b>	<b>A6</b>	<b>A7</b>
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
9							
10							

**A7. Oilangizda jami nechta odam bor? \_\_\_\_\_**

**A8. Uy xo'jaligingiz a'zolari orasida O'zbekistonning boshqa viloyatlarida yoki xorijda ishlab pul topayotganlar bormi?**

Ha	1
Yo'q	2

A8-1. “Ha” bo'lsa, nechta odam? \_\_\_\_\_

**A10. Ovqat pishirish, yuvish, bozorga borish kabi uy yumushlarini bajarishga kim javob beradi?**

Yoshi katta ayol	1
Yoshi katta erkak	2
Bolalar (18 yoshgacha)	3
Keksa yoshdagি odamlar	4

**A9. Mahallangizda, ayniqsa ish joyida, uy xo'jaligingizdagi ayollar asosan qanday qiyinchiliklarga duch keladi?**

Iqtisodiy tengsizlik	1
Teng imkoniyatlardan foydalanish imkoniyati	2
Behurmatlik	3
Davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	4
Xizmat bo'yicha o'sish imkoniyatining yo'qligi	5
Ta'lim va kasbiy o'qitish uchun imkoniyatlar cheklanganligi	6
